

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI**

«TASDIQLAYMAN»
Sog‘liqni saqlash vazirligi
Ilmiy texnik kengashi raisi
_____ **Sh.K.Atadjanov**
«____» _____ **2025 y.**

ALIYEV SHAVKAT RUZIMATOVICH

**“SURUNKALI VIRUSLI GEPATITLARDA
(B, C) MIKRORONKNING XUSUSIYATLARI VA AHAMIYATI ”**

(Monografiya)

Toshkent 2025

TUZUVCHI:

SH. R. Aliyev

Toshkent tibbiyot akademiyasi Mikrobiologiya,
virusologiya va immunologiya kafedrası dotsenti,
t.f.n.

Taqrizchilar:

G.S.Matnazarova

TTA, Epidemiologiya kafedrası mudiri, t.f.d.,
professor.

N.S.Atabekov

O‘zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik
osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasi
raisining birinchi o‘rinbosari, t.f.d., professor.

O‘zbekistonda , shu jumladan, butun dunyoda surunkali virusli gepatit (SVG) muammolari dolzarb bo‘lib qolmoqda. Ushbu muammoning ahamiyati nafaqat kasallikning keng va sezilarli darajada tarqalishi bilan, balki mehnatga layoqatli yoshdagi odamlarning kasallanishdagi ustunligi, uzoq va progressiv kasallikning kechishi, davolash jarayonlarining murakkabligi va eng muhimi kasallikning jigar sirrozi (JS) va gepatotsellulyar karsinoma (GSK) kabi og‘ir oqibatlariga olib kelishi bilan xarakterlanadi .

Shu sababli ushbu monografiyada surunkali virusli gepatit B va C kasalliklarining etiologiyasi, patogenezini, virusologik, molekulyar diagnostikasi va fanda yangi yo‘nalish bo‘lgan mikroRNK molekulalarining bu patologiyadagi roliga alohida e‘tibor berildi. Monografiya o‘rganilgan ilmiy manbalar ma’lumotlari hamda shaxsiy ilmiy-tadqiqot natijalariga asoslanib yozilgan.

Monografiya virusologlar, bakteriologlar, pediatrlar va umumiy amaliyot shifokorlariga, tibbiyot oliy o‘quv yurtlari talabalari hamda magistratura talabalari uchun mo‘ljallangan

QISQARTMALAR RO'YXATI:

AlAT – alanin aminotransferaza;

AsAT – aspartate aminotransferaza;

Anti-HBV- gepatit B virusiga qarshi antitelalar;

Anti-HCV- gepatit C virusiga qarshi antitelalar;

GSK - gepatotsellyulyar karsinoma;

Vranched DNA - amplifikatsiya signali;

GFI - gistologik faollik indeksi;

IFA - immunoferment analiz;

IFN- interferon;

XB - xalqaro birlik; Mmol/l - litr uchun millimol; mkmol/l - litr uchun mikromol;

HBsAg - gepatit B virusi antigenining sirt komponenti;

HBsAt- gepatit B virusi sirt antigeni antitelasi;

HBeAg - gepatit B virusining infeksiyonlik antigeni;

HBeAt - gepatit B virusining infeksiyonlik antigeni antitelasi;

HBcorAg - gepatit B virusi yadro komponenti antigeni

HBcorAt -gepatit B virusi yadro komponenti antigeniga qarshi antitelalari;

HBV-DNA - gepatit B virusi genomi;

HLA – Odamlarning leykotsitar antigenlari;

KXT - kasalliklarning xalqaro tasnifi;

SVGB- surunkali virusli gepatit B;

SVGC- surunkali virusli gepatit C;

PZR – polimeraza zanjirli reaksiya;

RNK – ribonuklein kislotasi;

mRNK - matritsa RNK si;

RNK - HDV – Odamning delta (D) virus genomi;

RBV – ribavirin;

OT – orqaga qaytaruvchi transkriptaza;

JS – jigar sirrozi

QQTU– quruq qon tomchilari usuli;

NAT –nuklein kislota testi;

TDT- tezkor diagnostika testidiri.

SO‘Z BOSHI

O‘zbekistonda , shu jumladan, butun dunyoda surunkali virusli gepatit (SVG) muammolari dolzarb bo‘lib qolmoqda. Ushbu muammoning ahamiyati nafaqat kasallikning keng va sezilarli darajada tarqalishi bilan, balki mehnatga layoqatli yoshdagi odamlarning kasallanishdagi ustunligi, uzoq va progressiv kasallikning kechishi, davolash jarayonlarining murakkabligi va eng muhimi kasallikning jigar sirrozi (JS) va gepatotsellulyar karsinoma (GSK) kabi og‘ir oqibatlarga olib kelishi, shuningdek, ushbu toifadagi bemorlarni tibbiy va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash uchun katta xarajatlar sarflanishi bilan xarakterlanadi.

Jahon Sog‘liqni saqlash tashkilotining (JSST- 23) hisobotiga ko‘ra, gepatit B va gepatit C birgalikda har yili 1,1 million kishilarning o‘limga va 3 million yangi infeksiya yuqishiga sabab bo‘ladi. Yer yuzida 350 million kishi surunkali virusli gepatit bilan yashaydi. Har kuni 3000 kishi bu gepatitlardan vafot etadi. Boshqacha qilib aytganda, har o‘ttiz soniyada bir kishi gepatitdan vafot etar ekan. Shu bilan bir qatorda JSST (2023) bergan ma’lumotiga qaraganda dunyoda gepatit bilan kasallangan odamlarning 80% dan ortig‘i kasallikning profilaktikasidan, indikatsiya testlari va davolash vositalaridan foydalana olmaydi.

Mamlakatimizda aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish, sog‘liqni saqlash tizimini jahon standartlariga tenglashtirish, samarali tashhislash va davolash uslublarini ishlab chiqish, jumladan surunkali virusli infeksiyalarni (gepatit B va C) kompleks terapiyasini takomillashtirish keng qamrovli islohotlar amalga oshirish kabi ustuvor vazifalar (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 16.05.2022 yildagi PQ-243-son “ Ayrim dolzarb virusli infeksiyalar tarqalishiga qarshi kurashish chora-tadbirlarini takomillashtirish to‘g‘risida”) belgilangan. Bu borada tibbiy xizmat

ko'rsatish sifatini yangi bosqichga ko'tarish maqsadida bemorlarda surunkali kasalliklarni tashxislash va davolashning zamonaviy usullarini ishlab chiqish va takomillashtirish kabi tadqiqotlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Virusli gepatit B va ayniqsa gepatit C virusi genomlarining yuqori geterogenligi molekulyar tavsifni nafaqat gen mutatsiyalari va gen ekspresiyalari profillarini aniqlashga, balki yangi biologik markerlarni ham asoslab beradi. Bunday yangi biomarkerlar mikroRNKlar hisoblanadi (mikroRNK, miRNK, miR). Bu mikroRNKlar - kichik molekulalar bo'lib, ular gen ekspressiyasini tartibga soladi va barcha hujayra jarayonlarida ishtirok etadi. Kichik o'lchamdagi kodlanmaydigan RNKlar to'qimalarni qayta tiklash jarayonlarining molekulyar dasturlashtirilgan regulyatorlari bo'lib, ular asosida tubdan yangi antivirus va o'sma kasalliklarining farmakologik vositalari ishlab chiqilmoqda. Ba'zi molekulalar allaqachon klinik o'rganish bosqichida (onkologiya, virusologiya va boshqa yo'nalishlarda), boshqalari esa tibbiyotda ulardan foydalanishni kutishmoqda, chunki ularning qo'llanilishi hozirgi kunda (hujayra terapiyasi va boshqalarda) eksperimental ravishda tasdiqlangan. Bularning barchasi bizga mikroRNK molekulalarining patologiyadagi rolini o'rganishni diagnostik belgilarni, shuningdek, terapevtik maqsadlarni izlash uchun eng istiqbolli yo'nalishlardan biri deb hisoblash imkonini beradi, ularning o'rganish zamonaviy tibbiy texnologiyalarni tubdan o'zgartirishga imkon berishi mumkin. Ayniqsa bu yo'nalishlarda surunkali virusli gepatit kasalliklarda va uning ilmiy izlanishlarida o'ta istiqbolli ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

Mavzuning dolzarbligiga yana bitta dalil 2024 yilgi fiziologiya yoki tibbiyot bo'yicha Nobel mukofoti Viktor Ambros va Gari Ravkanga "MikroRNKni kashf etgani va uning transkripsiyadan keyingi genlarni tartibga solishdagi roli" mavzusidagi ilmiy ishlari uchun berildi.

Shu sababli ushbu monografiyada surunkali virusli gepatit B va C kasalliklarining virusologik, molekulyar diagnostikasi va mikroRNK molekulalarining molekulyar tekshiruvlari natijasida olingan zamonaviy ma'lumotlar keltirilgan.

I BOB. SURUNKALI VIRUSLI GEPATITLARNING ZAMONAVIY MUAMMOLARI

Oxirgi yillarda ko‘plab viruslar keltirib chiqaruvchi yuqumli kasalliklarga qarshi kurashda erishilayotgan yutuqlarga qaramay, zamonaviy O‘zbekiston tibbiyotida, shu jumladan, butun dunyoda surunkali virusli gepatit (SVG) muammolari dolzarb bo‘lib qolmoqda [1,2,3]. Ushbu muammoning ahamiyati nafaqat kasallikning keng va sezilarli darajada tarqalishi bilan, balki mehnatga layoqatli yoshdagi odamlarning kasallanishdagi ustunligi, uzoq va progressiv kasallikning kechishi, davolash jarayonlarining murakkabligi va eng muhimi kasallikning jigar sirrozi (JS) va gepatosellulyar karsinoma (GSK) kabi og‘ir oqibatlariga olib kelishi, shuningdek, ushbu toifadagi bemorlarni tibbiy va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash uchun katta xarajatlar sarflanishi bilan xarakterlanadi. [4,5,6,7]

Jahon Sog‘liqni saqlash tashkilotining (JSST- 23) hisobotiga ko‘ra, gepatit B va gepatit C birgalikda har yili 1,1 million kishilarning o‘limga va 3 million yangi infeksiya yuqishiga sabab bo‘ladi. Yer yuzida 350 million kishi surunkali virusli gepatit bilan yashaydi. Har kuni 3000 kishi bu gepatitlardan vafot etadi. Boshqacha qilib aytganda, har o‘ttiz soniyada bir kishi gepatitdan vafot etar ekan va har kuni gepatit B va C infeksiyasining 8000 dan ortiq yangi holatlari ro‘y beradi, bu esa har daqiqada yer yuzida 5 dan ortiq kishilar infeksiyaga muhtalo bo‘lar ekan. Agar hozirgi tendensiya davom etsa, 2040 yilga kelib, har yili bezgak, sil va OIV/OITS dan o‘lganlardan ko‘ra ko‘proq odamlar virusli gepatitdan vafot etishi mumkin [JSST 23]. Shu bilan bir qatorda JSST (2023) bergan ma’lumotiga qaraganda dunyoda gepatit bilan kasallangan odamlarning 80% dan ortig‘i kasallikning profilaktikasidan, indikatsiya testlari va davolash vositalaridan foydalana olmaydi [8]. Keltirilgan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, gepatit B bilan kasallangan 257 million insonlarning atigi 10,5% (27 million kishi) o‘zlarida infeksiyon kasallik borligini bilishgan; kasallikka tashxis qo‘yilganlarning 17% (4,5 million kishi) dan, atiga 1,1 million kishi davolangan; 1,1 million kishilarda esa kasallik surunkali SVG formasiga o‘tgan Surunkali gepatit C (SGC) bilan og‘rigan 71 million kishilarning 19% (13,1 million kishi) o‘zlarida infeksiya

borligi holatini bilishgan; kasallikga tashxis qo'yilganlarning 15% (2 million kishi) 1,75 million kishi shu yili davolanishgan [8].

Jigar sirrozi bilan tugovchi surunkali gepatit C kasalligi Yevropa va Qo'shma Shtatlarda oldingi yillarda jigar transplantatsiyasi eng keng tarqalgan ko'rsatkichlardan biri xisoblangan va shuning uchun dunyoning aksariyat mamlakatlari uchun bu patologiya tibbiy, ijtimoiy va iqtisodiy muammo hisoblanadi [64,60,117,136].

Surunkali gepatitlar strukturasida gepatit C virusi oxirgi yillarda ustunlik qilmoqda [73]. Gepatit C virusi kasalligining kechishi, ham o'tkir, ham surunkali shakllarda paydo bo'lishi mumkin. Kasallikning o'tkir shakli odatda asimptomatik ko'rinishda kechadi, bu kasallikning yangi holatlarini aniqlashni qiyinlashtiradi. Ba'zi mutaxassislarning fikricha HCV infeksiyasi 15-45% hollarda odamlarda spontan davolashga muxtoj bo'lmasdan o'tishi mumkin [12]. Qolgan 55-85% kasallanganlarda esa surunkali gepatit infeksiyasini rivojlanishi kuzatilishi mumkin, 15 yil ichida surunkali gepatit 30-20% kasalliklari jigar sirroziga aylanishi mumkin, ammo boshqa tadqiqotlarda jigar sirrozi xavfi 50% gacha deb ta'kidlashadi [11,12 15,21,64,100,121, 116,135].

T.Poynard (2001) fikriga ko'ra bemorlarning 30 foizida sirroz rivojlanishi uchun 50 yildan ortiq vaqt ketadi [121]. Surunkali virusli gepatit kasallikning rivojlanishidagi bunday sezilarli farqlarning sabablari xozircha noaniq bo'lib qolmoqda. Shu bilan bir qatorda kasallikning shakllanishida multifaktorial ta'sirlar, shu jumladan virus va bemor omillari, xususan, IL-28B genining polimorfizm xususiyatlari taxmin qilinadi. 19 xromosoma polimorfizmi mintaqasining yonida IL-28B genom joylashgan bo'lsa SVGC bilan og'rikan bemorlarda antiviral terapiyaga javob prognozini va virusni spontan eliminatsiya imkoniyatini yaxshilashga imkon beradi. IL-28B genining CC alleliga ega bo'lgan shaxslar CT yoki TT alleliga qaraganda virusni spontan eliminatsiya qilish imkoniyatiga ega. 2009 yilda D.L.Thomas va boshq. 1008 SVGC bilan og'rikan bemorlarda bu holatni tekshirganda, virusni spontan eliminatsiyasi C allel bo'lgan kasallarning 53% kuzatishgan va faqat TT alleli bemorlarda bu holat 23% bo'lgan [25,30, 68].

Surunkali SVGC infeksiyasining rivojlanish tezligiga jins va yosh omillari ham ta'sir qiladi: 40-55 yoshdan oshgan erkaklarda jigar fibrozining tezroq rivojlanishi kuzatiladi [86], bolalarda kamroq rivojlanish (bola 1964). T.Poynard va boshq. yuqumli kasallik yuqqandan keyin 20 yil ichida jigar sirrozi 2% bemorlarda kuzatilgan bo'lsa, 50 yoshdan oshgan bemorlarda esa, bu ko'rsatkich 63% tashkil qilgan [114].

Surunkali virusli gepatit kasalliklarining shakllanishi bemorlarning irqiga, spirtli ichimliklarni iste'mol qilishi va chekish, ayniqsa nasha, marixuana chekishga ham bog'liqligi, ilmiy adabiyotlarda chop etilmoqda. SVGC infeksiyasining shakllanishi Afro-amerikaliklarda boshqa irqlarga qaraganda rivojlanish ehtimoli yuqoriroq bo'lgan (1667 in'eksion narkotik olayotgan kishilarni o'z ichiga olgan istiqbolli kogort tadqiqotida afroamerikaliklarning 91% da SVGC infeksiyasi rivojlangan, boshqa irq vakillarida esa bu ko'rsatkich 64% rivojlanganligi ko'rsatilgan) [38]. Bemorlar tomonidan spirtli ichimliklarni iste'mol qilish (hatto oz miqdorda) HCV replikatsiyasini oshiradi va surunkali SVGC infeksiyasining rivojlanishiga yordam beradi, jigar shikastlanishini kuchaytiradi va yuqori ko'rsatkichli o'limga olib keladi [40]. Marixuana chekish, shuningdek, endogen kannaboid tizimiga teratogen ta'siri natijasida jigar fibrozining tezroq rivojlanishiga yordam beradi [59].

Oxirgi yillarda ko'pgina tadqiqotlarga ko'ra, fibrozning rivojlanish darajasi va kasallikning kechish natijalari SVGC ning genotip 3 bilan bog'liqligi qayd qilinmoqda va uning ahamiyati infeksiyaning yuqish paytidagi bemorning jinsi va yoshi kabi o'zgartirilmaydigan omillardan yuqori turadi. Shuni ta'kidlash kerakki, SVGC genotipi 3 bo'lgan bemorlarda fibrozning rivojlanish tezligi SVGC genotiplari 1, 2 va 4 bilan kasallanganlarga qaraganda ishonarli yuqori xisoblangan [7, 12,70,91, 92,96, 130,126]. Bundan tashqari, koinfeksiya bir nechta genotiplar bilan prognozini yomonlashtirishi mumkin, kasallikning monoinfeksiya bilan solishtirganda [127]. Virusli yuklanish (nagruzka) darajasi SVGC bilan og'riq bemorlarda fibrozning rivojlanish tezligiga ta'sir qilmaydi.

So‘nggi yillarda steatozning jigar fibrozining rivojlanishiga to‘g‘ridan -to‘g‘ri bog‘liqligi isbotlangan [3,4, 5, 50, 63, 93]. OIV bilan kasallangan bemorlarda SVGC infeksiyasining tezroq rivojlanishi kuzatiladi [123] va SGC/SGB koinfeksiyasida.

HCV infeksiyasi bilan bog‘liq kasalliklar faqat jigar shikastlanishi bilan cheklanmaydi. HCV infeksiyasining manifestatsiyasi jigardan tashqari krioglobulinemiya, glomerulonefrit, tiroidit, Shegren sindromi, insulinrezistentlik, 2-toifa qandli diabet va terining jarohatlanishi kabi kasalliklarga ham sabab bo‘lishi mumkin. HCV infeksiyasi bo‘lgan bemorlar kognitiv disfunktsiya, zaiflik va depressiya rivojlanishiga ko‘proq moyil bo‘lishadi [66,74].

HCV infeksiyasidan farqli o‘laroq, HBV infeksiyasida jarayonning surunkali infeksiya formasiga o‘tish vaqti bemorning yoshiga bog‘liq: perinatal infeksiya yuqqanda 90% kuzatiladi, katta yoshdagilarda esa surunkali gepatit infeksiyasi 5% dan kam hollarda uchraydi [1, 138,141]. 1992 yilda HBV qarshi emlash boshlanganidan keyin rivojlangan mamlakatlarda HBV infeksiyasi sezilarli darajada kamaydi [119]. HCV infeksiyasida kuzatilgani kabi, HBV bemorlarining 20-30% jigar sirrozi yoki gepatosellular karsinomani rivojlanishi kuzatiladi [4, 15,21,33,94,136].

SGC bilan og‘rigan bemorlar kabi, shuningdek SGB bilan og‘rigan bemorlarda ham jarayonning sirozga o‘tishining potensial xavfi bemorlarning yoshiga, erkak jinsiga, spirtli ichimliklarni iste’mol qilish darajasiga, koinfektsiya-boshqa hepatotrop viruslar bilan (HDV) va OITV birga kelishiga, jigar fermentlarining doimiy ko‘tarilgan darajasiga (ALT), HBeAg pozitiv ko‘rinishiga [8,65,137] va HBV DNK ning yuqori darajada topilishiga bog‘liq bo‘ladi [13,125,139].

Shunday qilib, surunkali virusli gepatitning keng tarqalishi, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan salbiy omillar identifikatsiyasini murakkabligi, hozirgi kunda SGC va SGB diagnostikasi va prognozining yangi usullarini ishlab chiqish, takomillashtirish zarurligini talab qiladi.

1.1. Gepatit B (HBV) virusi.

O'zbekistonda gepatit B keng tarqalgan bo'lib. Ularga qarshi kurash mamlakat Sog'liqni saqlash vazirligining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. JSST (2023) bergan ma'lumotga qaraganda 2016 yilda mamlakatda gepatit B bilan kasallangan taxminan 2,5 million kishini tashkil qilgan.

2001-yildan boshlab O'zbekiston Respublikasida yangi tug'ilgan chaqaloqlarni HBV qarshi muntazam emlash joriy etildi. Respublikamizda 2003 yildan boshlab chaqaloqlarga emlashlar qamrovi 98% dan ortiq darajasiga erishildi [24]. 14 yoshgacha bo'lgan bolalarda o'tkir HBV virusi bilan kasallanish, shuningdek infeksiyaning serologik belgilarining tarqalishi, muntazam emlash dasturi boshlanganidan keyin 6-4 yil ichida keskin (deyarli 6 marta) kamaydi. Shu bilan bir qatorda so'nggi yillarda o'tkazilgan tekshiruvlar shuni ko'rsatmoqdaki o'tkir virusli gepatit B bilan kasallanish 14,7 marotaba O'zbekistonda kamaygan, bu holat xaqiqatdan ham Respublikada VGV qarshi rejalashtirilgan emlashni samaradorligini ko'rsatadi. Biroq, katta yoshdagi shaxslar o'rtasida virusli etiologiyali SGB va jigar sirrozi bilan og'rigan bemorlar kasallikning asosiy guruhini tashkil qilmoqda [4,6,20,24].

Gepatit B jigar kasalliklarini o'rganish bo'yicha Yevropa Assotsiatsiyasining ma'lumotlariga ko'ra, ijtimoiy-iqtisodiy holatni yaxshilanishi, emlash dasturlari va, ehtimol, samarali antivirus davolash tufayli endemikligi yuqori bo'lgan bir qator mamlakatlarda HBV tarqalishini kamayish tendensiyasi kuzatildi. [9.10]. Biroq, hozirgi vaqtda ba'zi Yevropa mamlakatlarida (masalan, Italiya, Germaniya) aholi migratsiyasi tufayli HBV infeksiyasining tarqalishi oshib bormoqda. Mahalliy aholiga nisbatan muhojirlar va qochqinlar orasida HBV ning tarqalish darajasi yuqori. Universal emlash dasturlarini qo'llash bilan ham, ayniqsa, yuqori xavfli guruhlarda o'tkir HBV infeksiyasi holatlarini sezilarli darajada oldini olish mumkin emaslig ma'lum bo'lmoqda. Shu tufayli HBV keltirib chiqaruvchi jigar sirrozi va yoki gepatotsellyulyar karsinoma (GSK) bilan bog'liq o'lim soni dunyo

bo'ylab 1990 dan 2013 yillar o'rtasida 33% oshganligi va mos ravishda 686,000 o'lim xolati qayd qilingan [9.10].

Rossiya Federatsiyasida HBV ning asosiy muammosi yuqori darajasi bo'lib uning surunkali (SGB) formaga o'tishi yuqoriligicha qolmoqda (2017 yilda berilgan ma'lumotga qaraganda SGB bilan yangi ro'yxatdan o'tgan bemorlarning soni 14073 tani tashkil etadi, bu 100 ming aholiga 9,61 tani tashkil etdi). Rossiya Federatsiyasi hududida SGB bilan kasallangan 3 milliondan ortiq bemor yashaydi, degan xulosalar mavjud. Bundan tashqari, bu bemorlarga bog'liq yuqori o'lim darajasi va bu bemorlar jigar sirrozi va asosiy jigar saratonini rivojlanishi uchun xaxira bo'ladi [23].


Yevropa mamlakatlari va Qo'shma Shtatlarda o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, dunyo salomatligi HBV dan ko'riladigan zarar, ilgari o'ylanganidan ancha yuqori ekan. Chunki, HBV ning yashirin formalarining qayta faollashish holatlarini deyarli registratsiya qilinmaydi [26]. Taxminan 250 milion kishi HBV sirt antigeni (HBsAg) ning surunkali tashuvchisi bo'lib, 2 dan 8% gacha bo'lgan HBsAg ijobiy bemorlar mintaqalarning endemikligi darajasida katta ahamiyatga ega xisoblanadi [10].

1.1.1. Gepatit B (HBV) virusi, tuzilishi va hayot faoliyati.

Gepatit B virusi Hepadnaviridae oilaning Orthohepadnavirus (yunoncha: ortos – to'g'ri, gepar – jigar, dna – DNK) avlodiga mansub bo'lib, bu avlodga 8 tur kiradi, shu jumladan hepatit B virusi (HBV). Gepatit B virusini hozirda 10 genotip ma'lum: HBV-A, HBV-B, HBV-C, HBV-V, HBV-E, HBV-A, HBV-Pb HBV-N, HBV-SH i HBV-O.

Gepatit B virusi 42-47 nm o'lchamdagi sharsimon shaklga ega. Virus tashqi tomondan fosfolipidli qobiq superkapsidga ega. Superkapsid tarkibida virus faoliyati uchun muhim bo'lgan glikoprotein tarkibli yuzaki (HBsAg) antigeni joylashgan. Superkapsid ostida 27 nm teng bo'lgan mag'izi (core) mavjud. Mag'iz tarkibida virusning mahiz HBs-antigen (HBcAg) uchraydi. Mahiz ichida virusning DNK si joylashgan bo'lib, virusning DNK polimeraza fermenti va kapsid oqsili


HBe-antigen (HBeAg) bog‘langan bo‘lib virusni nukleokapsidi shakillantiradi (rasm 1) .



Rasm 1. Gepatit B virusining sxematik tuzilishi (internet resursidan olindi).

Superkapsid qobig‘ida HBs- antigenining 3 turi mavjud: S-HBsAg yoki s glikoprotein (eng. small-kichik), M-HBsAg yoki M-glikoprotein (ing. middle-o‘rta) va L-HBsAg yoki L-glikoprotein (ing. large-katta). S-HBsAg -virus superkapsidining asosiy antigeni bo‘lib, jami sirtqi glikoproteinlarni 70% ni tashkil qiladi. L-HBs-antigen esa virionni hujayra retseptorlari bilan bog‘lashi uchun javobgar xisoblanadi. HBsAg qonda infeksiya boshlangandan keyin 1,5 oy o‘tgach aniqlanadi. HBs -antigenining organizmdan topilishi, organizmda virus gepatit B mavjudligi ko‘rsatadi. HBs- antigeniga qarshi antitelalarning mavjudligi yuqumli kasallikda yoki emlashdan keyingi immunitetning shakllanishi natijasida gepatit B ga qarshi immunitet bilan bog‘liqligini bildiradi.

HBcAg qonda erkin shaklda aniqlanmaydi, uni faqat jigar biopsiyasida morfologik tekshirish orqali aniqlash mumkin (gepatotsitlarda virusli replikatsiya belgisi xisoblanadi).



Rasm 2. Gepatit B virusining qonda uchrovchi shakillari, sxematik tuzilishi (internet resursidan olindi).


HBcAg bemorning qonida kasallikning faol bosqichida, bemorning yuqori darajadagi yuqumli ekanligini ko'rsatadi. HBcAg ni surunkali gepatit bilan og'rigan bemorlarda aniqlash, yuqumli kasallik jarayonining faollashganligini ko'rsatadi.

HBeAg bemorning qonida kasallikning faol bosqichida aniqlanadi va bemorning yuqori yuqumli ekanligini ko'rsatadi. HBeAg ni aniqlash surunkali gepatit bilan og'rigan bemorlarda yuqumli kasallikning faollashganligiga dalolat xisoblanadi.

Virus nukleokapsidi kubik simmetriya tipiga ega. Kapsid 180 dan iborat oqsil subbirliklardan (kapsomerlar) tashkil topgan. Virus genomini ikki zanjirli DNK molekulasini hosil qiladi Virusning bir zanjirda nuqsonidir (DNK ning bitta ip boshqasidan 1/3 qisqa). DNKning qisqa zanjiri bu to'liq bo'lmagan musbat ip. DNKning uzun zanjiri manfiy zanjirdir. Manfiy zanjir DNK polimerazaga bog'langan bo'lib, musbat zanjirni to'laqonli musbat zanjirga aylantiradi DNK polimeraza matritsada yangi DNK zanjirlarining sintezini va RNK sintezini amalga oshiradi.

Genom tarkibida 4 ta gen mavjud (S, C, P va X). Ba'zi genlarning ochiq o'qish ramkalari qisman bir-birining qoplab turadi. S geni HBs-antigenni sintezini kodlaydi. S genidan oldin 2 ta sayt mavjud: preS1 i pre-S2. Genlar ushbu 2 ta saytda 3 ta oqsilni kodlaydi: S-HBsAg oqsilni S-gen, M-HBsAg oqsilni esa preS2

va S genom, oqsil L-HBsAg press 1, preS2 va S-genom tomonidan kodlashtiriladi. C geni HBcAg nukleokapsid oqsilini kodlaydi. C geni oldida tartibga soluvchi pre-Core uchastkasi mavjud bo'lib, boshqaruvchi oqsilning deterministik sintezitaminlaydi. R geni RNK ga talluqli DNK polimerazani kodlaydi. X geni esa barcha virusli oqsillar uchun asos bo'lgan matritsa RNK larining sintezini tartibga solish uchun mas'ul bo'lgan oqsil sintezini amalga oshiradi. Hepatit B virusi genomining tuzilish sxemasi 2-rasmda keltirilgan.




Rasm 3. Hepatit B virusi genomining sxematik tuzilishi

Gepatit B virusning replikatsiyasi faqat hepatotsit hujayralarda sodir bo'ladi, natijada virionlar sitopatik tarzda hujayradan chiqmaydi, balki hujayra ichidagi sekretor yo'l orqali hujayradan chiqariladi. Virus genomi yuqorida keltirilgandek, juda ixcham tarkibiy birlik bo'lib, u 4 ta oqsilni kodlovchi 7 genga ega bo'lgan kichik, ikki zanjirli spiral DNK (rcDNA) dan iborat: HBeAg (HBV e antigeni, dimerli oqsil ajratadi), HBeAg (HBV yuza antigeni, virusni kapsid oqsili), HBV Pol / RT (polimeraza, teskari transkriptaza faolligini), PreS1 / PreS2 / HBsAg / HBsAg (katta, o'rta va kichik yuza qoplamali glikoproteinlarni) va HBx (HBV x antigen, virusli infeksiyani boshlash uchun zarur bo'lgan transkripsiya regulyatori).

Virus hepatotsit hujayrasiga kirkandan so'ng, HBV nukleokapsid nukleoplazmadan rcDNA genomini ajratib olish uchun hujayra yadrosiga tashib o'tkaziladi, virus rcDNA si gistonlar bilan qoplangan kovalent bog'langan halqa

DNKga (cccDNA) aylanadi, natijada episomal xromatizatsiyalangan struktura hosil bo‘ladi. Keyinchalik, u virus oqsillardan hosil bo‘lgan barcha virusli nusxalar (kopiya) uchun transkripsiya modeli bo‘lib xizmat qiladi [95].



4-rasm. Gepatit B virusi hayot siklining sxemasi. (Internet resursdan olindi)

Kapsid oqsili va virusli polimerazani kodlashdan tashqari, pregenomik RNK teskari transkripsiyaga mos keladi, buning natijasida virusli kapsid ichida yangi rcDNA hosil bo‘ladi. Sitoplazmada joylashgan DNK o‘z ichiga olgan nukleokapsidlar yadroda takroriy sikldan o‘tadi va shu bilan cccDNA yaxlitligini saqlaydi yoki endoplazmatik retikulum tomonidan so‘riladi tashqariga sekretor yo‘l orqali ajralib chiqadi [46]. Infeksiyalangan hujayralar, to‘liq huquqli yuqumli virionlardan tashqari (diametri 42 nm), ko‘p sonli genomik bo‘lmagan yuqumsiz, sferik yoki tayoqchasimon filamentli zarrachalarni (22 nm) ham sintezlab ishlab chiqaradi (rasim 2). Virus genomining integratsiyasi o‘z-o‘zidan sodir bo‘ladi va bu hepatotsitlarning o‘zgarishi va transformatsiya jarayonidagi eng muhim mexanizmlardan biridir.)

Ba'zi hollarda virusli DNK si hujayra genomiga integratsiya shaklda joylashib olishi va provirus ko'rinishiga aylanishi mumkin. Bunday holda, integrativ infeksiya rivojlanadi, integratsiya bo'lgan virus DNK si -to'liq bo'lmagan DNK zanjirini to'ldirilishi va to'liq ikki zanjirli halqa DNKning shakllanishi; 3 –virus genomining hujayra yadrosiga kirib borishi; 4- hujayra yadrosida DNKga bog'liq RNK polimeraza yordamida turli xil iRNKlarning (virus oqsillari sintez uchun) va virusli genomning replikatsiyasi uchun RNK pregenom matritsasi sintezi; 5 - iRNKning yadrodan hujayra sitoplazmasiga o'tishi va virus avlod virionlar oqsillarning hosil qilishi; 6-pregenomaning yadrodan hujayra sitoplazmasiga o'tiishi va virus DNK polimeraza manfiy DNK zanjirining ta'sirida musbatDNK zanjiri hosil bo'lishi, pregenom atrofida virus yadrosining yig'ilishi; 7-NVs tarkibli superkapsid qobig'ining endoplazmatik membrana qobig'ining shakllanishi, virionlarning hujayradan ekzotsitoz yo'li bilan chiqishi

hujayra apoptozini ingibitsiya qiladi va kasallikni surinkali jarayonga o'tishiga hissa qo'shadi. Boshqa hollarda, hujayrada to'laqonli virus avlodi zarralari hosil bo'ladi va hujayrani tark etadi. Bu holda, asosan prodktiv infeksiya rivojlanadi. Gepatit B virusining hayot faoliyati sxemasi 3-rasmda keltirilgan.

1.1.2. Gepatit B virusining mutatsion o'zgaruvchanligi.....

Teskari transkriptazaning yo'qligi HBV genomning tez-tez mutatsiyasiga olib keladi. Bu virus bilan kasallangan shaxslarda genetik jihatdan turli xil virus turlarning kelib chiqishiga olib keladi, bu bemorlarni kvazi-shaxslar deb ham ataladi, viruslar mezbon organizm muhiti ta'siri ostida rivojlanadi. Davolash preparatlariga va immunitetga chidamli virusni bunday shtammlarini paydo bo'lishining sababi virus bilan, gepatotsitlar, organizmning immun reaksiyasi yoki antivirus davolash o'rtasidagi o'zaro munosabat natijasi deb hisoblanadi. Bunday munosabatlar natijasida virusni

antivirus davolashdan va immun javobidan qochish qobiliyatiga ega bo'lgan HBV ning mutantlarining paydo bo'lishiga olib keladi, deb takidlashadi.

HBV mutatsion o'zgaruvchanlikka ega. "Yovvoyi" turiga qo'shimcha ravishda, HBV ning mutant variantlari mavjud. Mutantlar HBV mavjudligida hal qiluvchi rol o'ynaydi, infektsiyani saqlab qoladi va kasallikning surunkali shakliga o'tishni taminlaydi. HBV genom ketma-ketligidagi, ayniqsa S genidagi o'zgarishlarni, HBsAg ning immunogenligiga ta'siri tufayli ularni o'rganishga katta qiziqish uyg'onmoqda. O'tkir infektsiya paytida HBsAg tomonidan aktivlashtirilgan o'ziga xos antitelalar tezda virusli zarralar bilan komplekslarni hosil qiladi, ularni organizmda aylanishdan tozalaydi va virusning adgiziyasi va maqsadli sezgir hujayralarga kirishining oldini oladi. Pre-S/S mintaqasidagi mutatsiyalar natijasida kelib chiqqan HBV variantlari antitelalar hujumidan qochishi kuzatiladi. Bundan tashqari, ma'lum antigenik determinantlardan uzoqda joylashgan nuqta mutatsiyalari o'ziga xos epitoplarda ularning antitelalar tomonidan tan olinishiga to'sqinlik qiladigan konformatsion o'zgarishlarga olib kelishi mumkin.

"Immunologik qochish" antitelalardan qochish bilan cheklanmaydi. Surunkali infektsiyani keltirib chiqaradigan HBV T hujayralar immun javobidan qochishi zarur. Tez rivojlanayotgan virus mutantlari, o'ziga xost immun tizimga normal moslashish xususiyatlari chegaralarini "izlaydi". Bu esa o'z navbatida mutant virusni organizmda cheksiz ko'payish imkoniyatini yaratadi. Ushbu hodisa virusga qarshi vaktsinalarning samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin, ayniqsa ularda bitta immunodominant epitop bo'lsa va yangi vaktsina preparatlarini yaratishda bu fenomenni hisobga olinishi kerak.

S genidagi mutatsiyalar virusni zararsizlantiradigan antitelarning asosiy epitopi bo'lgan a-determinantning antigen tuzilishini o'zgartiradi. Ushbu mutatsiya virusga immunitet reaksiyasidan, shu jumladan vaktsina

tomonidan qo'zg'atilgan immun javobdan qochishga imkon beradi va samarasiz emlashning sababi bo'lishi mumkin (2 dan 40% gacha - vaktsina qilishda kuzatiladi).

Gepatit B ning vaktsinoprofilaktikasidagi eng muhim masalalardan biri - hepatit B virusining a-determinant mintaqasida genetik o'zgaruvchanligi xisoblanadi. Emlashdan kelib chiqadigan himoya immuniteti a-determinantga xos bo'lgan neytrallovchi HBsAg antitelarini (anti-HBs), ishlab chiqarish bilan bog'liq. a-determinantga qarshi neytrallavchi antitelalarning chiqarilishi barcha hepatit B genotiplariga qarshi o'zaro himoyasini ta'minlaydi.

HBV infeksiyasining to'liq organizmdan ingibitsiyasi, deyarli har doim qon zardobida HBsAg ning yo'qolishi va anti-HBs ning paydo bo'lishi bilan bog'liq.

Shu bilan bir qatorda, emlashdan qat'iy nazar bemorlarda rivojlangan hepatit B kasalligining ba'zi sporadik holatlarida HBsAg va anti-HBs bir vaqtning o'zida aniqlanadi.

Bunday bemorlardan ajratib olingan virusli izolatlarni tahlil qilish HBsAg a-determinantida mutatsiyalar mavjudligini ko'rsatdi. Bemorlardan ajratilgan mutant HBsAg in vitro tadqiqotlarida yovvoyi tipdagi a-determinantga xos monoklonal yoki poliklonal antitelalar tomonidan aniqlanmaydi. Shuning uchun aminokislotalarning 124-148 pozitsiyalarida HBsAg a-determinantidagi mutatsiyalar virusning immunologik "qochib ketishi" bilan bog'liq deb hisoblashadi.

CGB bilan og'rigan bemorlarda pre-S1 mintaqasida keng ko'lamli deletsiyaga ega HBV mutantlari topilgan. Ushbu bemorlarda transkripsiya faktorini bog'lovchi saytlarni yo'qotish natijasida deyarli HBsAg sintezlanmagan. Mutantlar yovvoyi turdagi virus bilan birga yashagan.

Deletsiya polimeraza genining funksiyasiga ta'sir qilmagan, shuning uchun mutant virus *in vitroda* replikatsiya qilish qobiliyatini saqlab qolgan, biroq kapsidlangan mutant genomning sekretsiyasi ingibitsiya bo'lgan va faqat pre-S1, npe-S2 va S oqsil sintezini amalga oshiruvchi plazmidlarning birgalikda

transfeksiyasi bilan tiklangan. Trans-komplementatsiya in vivo ham sodir bo'lishi taxmin qilinmoqda.

Keyinchalik anti-HBs bor aktiv hepatit B bilan kasallangan bemorlarda HBsAg ning yangi mutanti borligi aniqlangan. Bu viruslarning ko'pchilik populyatsiyalarida viruslarning 31 chi nukleotitida deletsiya aniqlangan, bu o'z navbatida ORSning siljishiga va HBsAg ning 21-aminokislotasidan keyin (stop) to'xtash kodonining paydo bo'lishiga olib keladi.

Natijada, virusni yuza oqsili muhim neytrallanuvchi epitoplardan mahrum bo'lib, organizmda anti-HBs borligida ham virusni ko'payishga imkon beradi.

pre-S1gacha bo'lgan zonadagi mutatsiyalar HBsAg ni sintez qilish qobiliyatini suslashtiradi, bu esa bunday mutant bilan kasallangan odamlarda HbsAg ni past kontsentratsiyasida sintezi kuzatiladi, bu an'anaviy diagnostika testlari (diagnostikadan qochish) bilan aniqlanmaydi. pre-Core/Core genining mutatsiyasi HBeAg sintezining to'xtashiga olib keladi (bemor zardobida HBeAg mavjud emas, mutant virus bilan zararlangan hepatotsitlar esa HBeAg ni o'z yuzasida chiqarmaydi, shuningdek, bemorlarda HBV tufayli kelib chiqqan yashirin infektsiyaning rivojlanishi kuzatiladi, bunday bemorlarda virusning zardob markerlari (anti-HBcore bundan mustasno) topilmaydi, HBV DNK replikatsiyasi (PZR yordamida qon yoki jigar to'qimalarida) aniqlanadi .

HBV genomidagi birinchi klinik alomatlar aniqlangan va funktsional xarakterli mutatsiyalardan biri HBeAg ishlab chiqarishni to'xtatib qolishidir, chunki bunday bemorlarda pre-Core hududida to'xtash-kodon paydo bo'lishiga olib keladi. HbeAg ning a/HBe ni serokonversiyasiga qaramay, SGV bilan kasallangan barcha bemorlarning qonida BGV DNKsi topilmaydi degani emas.

Ushbu mutatsiya pre-Core genining oxirida to'xtash kodonining paydo bo'lishiga olib keladi va shuning uchun HBeAg ning kashshofi bo'lgan pre-Core/Core f`yujn- oqsili sintez qilinmadi. Ushbu bemorlarda virusning ko'payishi to'xtamadi. HBeAg ning yo'qolishi virusning biologiyasiga ta'sir qilmaydi, ammo virus va individ immun tizimi o'rtasidagi o'zaro munosabatga muhim ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Sekreksiya qilingan HBeAg homilada immunoregulyatsion funktsiyaga ega bo'lib, HBV bilan kasallangan onalarning yangi tug'ilgan chaqaloqlarida persistent infeksiyaning rivojlanishini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan T-hujayra tolerantligiga olib keladi. Keyinchalik, HBeAg ning antigen taqdimoti va $CD4^+$ T hujayralari tomonidan tan olinishi va immunomodulator roli ko'rsatilgan.

P (polimeraza) genining mutatsiyalari nukleozid analoglari bilan o'tkazilayotgan terapiyaga nisbatan viruslarning chidamli shtammlarini rivojlanishi va virusning persistentsiyasi bilan bog'liq. Lamivudinga rezistentli viruslar patogen bo'lib qoladi. HBsAg va virus polimerazasini kodlaydigan virus genomidagi ochiq o'qish ramkalarining bir-biriga mos kelishi tufayli a-determinantdagi mutatsiyalar polimeraza mutatsiyalariga olib kelishi mumkin, bu esa o'z navbatida virusning replikasiya potentsialiga ta'sir qilishi yoki virusning dori vositalariga chidamliligini shakillantrishi mumkin. Hozirgi vaqtda HBV P genida sezilarli miqdordagi mutatsiyalar aniqlangan, bu mutatsiyalar nukleozit analoglari bilan davolashga chidamlilikning rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan P genidagi eng keng tarqalgan mutatsiyalar xisoblanadi va lamivudin dori vositasiga qarshi rezistentlikni shakillanishi bilan bog'liq. Ushbu rezistentlikning asosiy sababi DNK polimeraza domenining katalitik S joyining bir qismi bo'lgan teskari transkriptazaning (203-206 kodonlarida, tirozin-metionin-aspartat-aspartat) yuqori darajada saqlanib qolgan YMDD lokusida yz bergan mutatsiyalar xisoblanadi.

SGB ni 4-yil davomida davolashda entekavir monoterapiya sifatida ishllanilganda 1% dan kam hollarda rezistentlik preparatga nisbatan sodir bo'lgan. Entekavirga nisbatan rezistentlik ko'pincha lamivudinga dastlabki chidamliligi bo'lgan bemorlarni davolashda kuzatiladi, bu preparatni qabul qilishdan 1-4 yil o'tgach rezistentlik 6-40% ni tashkil qiladi.

Gepatotsellyulyar karsinoma bilan og'rigan bemorlarda X genining mutatsiyalari aniqlangan.

HBV mutantlari vaqtga nisbatan barqaror xisoblanadi, gorizontal va vertikal ravishda uzatilishi mumkin.

Gepatit B ni o'rganishda erishilgan muvaffaqiyatlarga qaramay, virusning genetik o'zgaruvchanligi, tuzilishi va murakkabligi, epidemik jarayonning multifaktorial rivojlanishihali gepatit B infeksiyasining barcha shakllari kechishini to'liq ochib berishga imkon bermaydi. Shuning uchun virusning genetik variantlarining O'zbekiston aholisi orasida tarqalishi mumkinligini xisobga olib, HBVmutant shakllarini chuqur o'rganish zarurati tug'iladi.

1.1.4. HBV epidemiologiyasi, davolash, profilaktikasi

Gepatit B-infeksiyasi antroponoz infeksiya xisoblanadi. Infeksion manbai tabiatda inson (bemorlar va virus tashuvchilar). Yuqtirish mexanizmlari-parental, aloqa. Yuqish yo'llari qon quyish (qon yoki uning tarkibiy qismlarini quyish), in'eksiya, shprints (bemorning qoni bilan bilvosita aloqa), jinsiy (gomo-va geteroseksual aloqalar), infeksiyani onadan homilaga yuqtirish mumkin (vertikal yuqish). Infeksiyalangan shaxslarda virus ularning hamma joylarida topiladi biologik suyuqliklarda (qon, tupuk, siydik, sperma, vaginal sekretiya, sinovial suyuqlik, orqa miya suyuqligida, ona sutida), lekin, shu bilan bir qatorda asosiy yuqtirish omili qondir. Transplantatsiya uchun olingan to'qimalar va organlar infeksiya manbasi bo'lishi mumkin. Virus qonda 2-3 oy oldin jigar shikastlanishining alomatlari paydo bo'lgunicha paydo bo'ladi va undan keyin 5 yilgacha klinik tiklanish davrlarida topiladi. Tibbiyot xodimlari, gemotransfuziya oluvchilar, giyohvandlar, gemofiliya bilan og'rigan bemorlar, donorlar havfli guruxga kiradi.

Gepatit B virusi yuqumliligi (kontagioznost) jihatidan OITV dan 100 baravar ustun turadi. Gepatit B virusidan o'lgan odamlarning soni, ikkinchi Jahon urushining barcha yillarida o'lgan odamlarning sonidan yuqoriroqdir. JSST ma'lumotlariga ko'ra, HBV tashuvchilarining soni turli mamlakatlar yoki mintaqalar aholisining 0,1 dan 20% gachasini qamrab olgan [35].

Gepatit B aksariyat holatlarda o'tkir kechadi. Nomidan farqli o'laroq, o'tkir hepatit B ning klinik tuzalishi o'z-o'zidan kuzatiladi. Barcha 90-95% holatlarda kasallik tuzalib ketadi va bir necha hafta ichida bemor virusdan forig' bo'lishi mumkin. Jigar funksiyasi 6 oy ichida, kasallikdan keyin normal holatga qaytadi [6, 7]. Gepatit B ning o'tkir holatlarida virusga qarshi davolash vositalari odatda buyurilmaydi.

Surunkali virusli hepatit odatda salbiy omillar fonida rivojlanadi – o'tkir hepatitni noto'g'ri davolash, rekonvalesensiyada to'liq tiklanmaslik, yuklangan premorbid foni, alkogol yoki giyohvand moddalarni istimol qilinishi, boshqa viruslar (shu jumladan hepatotropik) bilan infeksiyalanish va boshqalar.

Surunkali virusli hepatitda etakchi patogenetik mexanizm immunitet hujayralarining virus bilan zararlangan hepatotsit hujayralarining o'zaro ta'sir va munosabatlarining buzilishi xisoblanadi. Shu bilan birga organizmda, T-tizimining etishmasligi, makrofaglarning faoliyatini suslashuvi, interferonogenez tizimining zaiflashishi, virus antigenlariga qarshi o'ziga xos antitela genezisining etishmasligi mavjud bo'ladi, bu oxir-oqibat hepatotsitlar yuzasida virus antigenlarining immun tizimi tomonidan aniqlash va viruslar bilan zararlangan (normada) hepatotsit hujayralarini, etarli darajada virusni organizmdan eliminatsiya qilinishini buziladi.

Surunkali hepatit B da antivirus terapiya virusni ko'payish faolligini sezilarli darajada kamaytirishi mumkin, jigar faoliyati tiklanadi va siroz xavfi kamayadi.

Biroq, 10-15% dan ko'p bo'lmagan hollarda zamonaviy usullar yordamida surunkali hepatit B da to'liq davolanishga (virusdan organizmning tozalanishi) erishish mumkin.

Surunkali hepatit B ni davolash uchun alfa-interferon guruhining antivirus preparatlari va nukleozid analoglari (lamivudin, adefovir)


ishlatiladi, bu dori vositalari virusning ko‘payish tezligini sezilarli darajada kamaytiradi va jigar hujayralarida virionlarning yig‘ilishini oldini oladi.

Gepatit B ning maxsus profilaktikasiga HBV ning HBs-antigeni bo‘lgan rekombinant genetik muhandislik vaksinalaridan foydalaniladi.

Bu vaksinani 1986 yilda chililik biokimyogar P.Valensuela genetik modifikatsiyalangan (rekombinant) hepatit B vaksinasini yaratdi

Rekombinant hepatit B vaksinasini virusni protektiv antigeni bo‘lgan HBs-antigenni sintezida masul bo‘lgan S-genini xamirturush hujayrasi genomga joylashtirish orqali yaratgan (4-rasm).

Bunday genetik modifikatsiyalangan xamirturush zamburug‘lari ozuqaviy vositalarida ko‘payish jarayonida biz uchun zarur bo‘lgan HBs-antigenni sintiz qiladi. Vaksina tozalanib ishlatishga chiqariladi.



5-rasm-rekombinant hepatit B vaksinasini tayyorlash sxemasi.

Gepatit B vaksinasini majburiy emlash taqvimiga kiritilgan bo‘lib, unga ko‘ra bolalar tug‘ilgandan keyin 24 soat ichida, keyin 1 oydan keyin va 5-6 oylikda emlanadi. Immunitetning davomiyligi emlashdan keyin 5-7 yil.

Ilgari emlanmagan kattalarga emlash uch marta amalga oshiriladi: ikki doza bir oy ichida, uchinchi doza esa 6 oydan keyin qo‘llaniladi. Bugungi kunda ishlab

chiqilgan vaksinalar vaksinaga bog'liq gepatit B kasalligini keltirib chiqarmaydi, chunki bu vakcina tarkibidagi HBs-antigen genetik modifikatsiyalangan usulda yaratilgan. Biroq, emlash profilaktikasida vakcina gepatit B dan faqat 5-7 yil davomida himoya qiladi. Emlashdan oldin, emlash natijalariga ko'ra va emlashdan keyin 5 yil o'tgach, anti- HBs antitelalar darajasini tekshirib turish zarur.

1-jadval.

Gepatit B vaksinasini emlashdan oldin, emlash natijalariga ko'ra nazorat qilish sxemasi.

Anti-HBs darajasi (Ed/l)	Tavsiya etilgan revaksinatsion muddatlar
10 dan kam	darhol
11 - 100	3 oydan 6 oygacha
101 - 1000	1 yildan keyin
1001 - 10000	3.5 yildan keyin
10000 dan ortiq	7 yildan keyin

1.2.1. Gepatit C (HBC) virusi

Gepatit C- bu parentral infeksiya mexanizmiga ega bo'lgan antroponoz virusli kasallik bo'lib, posttransfuzion gepatit shaklida ko'rinishi yuzaga chiquvchi, sariqlik kuzatilmagan va yengil shakllarning ustunligi bilan o'tuvchi kasallik xisoblanadi. Kasallik surunkali formaga o'tishga moyil bo'lgaligi uchun

gepatit C kasalligini ko‘pincha shifokorlar " mehribon qotil " deb atashadi, chunki u o‘zini boshqa kasalliklar sifatida yashirishga qodirdir.

Gepatit C virusi 1989-yilda kashf etilgan, D.U. Bredli, M. Xyuton, Kvi Lim CHu i D. Kuo lar " ni-a, ni-B " gepatitli bemorlarning qonida flaviviruslarga xos RNK virusini topishgan.

Gepatit C virusi Flaviviridae oilaga tegishli (lotin Flaviviridae (lat. flavus - sariq) bo‘lib tur Hepacivirus avlodiga (lotin hepar - jigar) va Hepatitis C virus (HCV) turi tafovut qilinadi. Turlar ichida gepatit C viruslari genotiplarga bo‘linadi. Bugungi kunda gepatit C virusining 6 genotipi mavjud. Genotiplar arab raqamlari bilan ko‘rsatilgan (1-6). Genotiplarni aniqlash davolash kursini belgilash va kasallikning kechishini bashorat qilish uchun katta ahamiyatga ega. Gepatit C virusi (HCV – hepatitis C virus) o‘tkir va surunkali jigar kasalliklarining asosiy sabablaridan biri bo‘lib, so‘nggi yillarda yanada ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lmoqda. HCV hamma joyda tarqalganligi qayd qilinmoqda [15]. JSST ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo bo‘ylab 130-170 million kishi surunkali ravishda HCV bilan kasallangan va har yili 3-4 million kishiga kasallik yuqadi va 350 mingdan ortiq insonlar bu xastalikdan vafot etishadi. HCV infeksiyalangan odamning qoni bilan bevosita aloqa qilish orqali tarqaladi va asosan parentral, shuningdek vertikal (onadan bolaga) o‘tadi. HCV ning dunyoda keng tarqalishining asosiy sabablaridan biri bu xavfli qon quyish usullaridan foydalanish va yetarli darajada sterilizatsiya qilinmagan igna va shpritslarni qayta ishlatish xisoblanadi.


Gepatit C ko‘pincha jigarga talluqli bo‘lmagan asoratlari (membranoproliferativ glomerulonefrit, Behchet kasalligi, erta sochning oqarishi, miya vaskuliti, krioglobulinemiya, diabet va boshqalar) kabi infeksiyaning kechishi bilan jarayonni murakkablashtiradi. Ko‘rsatilgan kasalliklarning aksariyati uchun HCV ning etiologik rolini isbotlash uchun yaxshi

sabab jarohatlangan inson organlari va to'qimalarida HCV RNK ning replikativ shakllarini aniqlashdir.

1.2.2. HCV virusining tuzilishi va hayot faoliyati

GC qo'zg'atuvchisi o'lchami kichik (diametri 30-38 nm) RNK-saqlovchi, qobig'li virus hisoblanadi. CsCl zichlik gradientida HCV virionlarining suzuvchi zichligi 1,24 g/sm³; saxaroza gradienti – 1,08-1,11 g/sm³; sedimintatsiya koeffitsienti 200S ga teng. Bundan tashqari 1,04–1,06 g/sm³ ga teng engilroq fraksiyasi ham aniqlangan, bu ehtimol HCV zardob tarkibidagi beta-lipoprotein bilan assotsiatsiyasining natijasi bo'lishi mumkin. Saxaroza zichligi gradientidagi og'irroq fraksiya (1,17 g/sm³), bu ham virusni yuqumli bo'lmagan antitela, immun komplekslari bilan bog'liq bo'lishi mumkin. HCV ning nukleokapsidi 1.25 g/sm³ teng suzuvchi zichlikli saxaroza gradientiga ega [48] .


HCV genomi bir ipli (+) RNK- zanjirdan iborat bo'lib, tarkibida 9600 nukleotidlar tutadi. Ochiq o'qish ramkasi 3011-3033 aminokislota qoldiqlaridan iborat poliproteini (am.o.) kodlaydi va virus va hujayra proteazalar tomonidan posttranslyasion ishlov berish parchalash natijasida 10 ta virus oqsillari shakllanadi. Strukturaviy oqsillar HCV poliproteini N-terminal qismini oxirida joylashgan: kapsid oqsili (core) va ikkita glikoprotein qobiq oqsillaridan (E1 va E2) uborat. HCV genomining qolgan uchdan ikki qismi strukturaga talluqli bo'lmagan oqsillarni (r7, HC2, HC3, NS4A, HC 4B, HC5A , HC5B,) kodlashtiradi, bu oqsillar virusning hayot siklini, hujayra ichidagi jarayonlarini muvofiqlashtiriradi (7-rasm).



Rasm 6. Gepatit C virusi sxematik tuzilishi (Internet resursidan olindi)

HCV genomining tarkibiy qismi 4 ta oqsilning sintezi uchun javob beradi: kapsid oqsili - yadro, qobig'ining ikkita glikoproteinlari - E1 (r18 i gp33), E2 (r38 i gp72; ilgari NSI sifatida aniqlangan), shuningdek r7 proteini. Virionning nukleokapsidi RNK bilan bog'langan yadro (mag'iz) oqsilidan hosil bo'ladi. Virus superkapsidi yuzasida ikkita kovalent bog'liqlikga xos bo'lmagan virusning glikoproteinlar - E1 i E2 kompleksidan iborat. Virusning qobig'i ho'jayin hujayrasi lipidlaridan hosil bo'ladi.

Core HCV ning nukleokapsid oqsili bo'lib, u genotiplar orasida yuqori konservativlik darajada saqlanadi, prekursor polipeptidining N-terminal qismida (a.o. 1-191) lokalizatsiya qilinadi va 3 qismdan iborat: r21 molekulyar massasi 21 kDa, r19 molekulyar massasi 19 kDa bo'lib, infeksiyalangan hujayraning endoplazmatik retikulum membranasida joylashgan, r16 (16 kDa) esa yadro tarkibida topiladi. Asosiy oqsil komponentlari hujayraning mitoxondriyalari va lipid birikmalarida ham mavjud bo'ladi [132]. Virus oqsillarining turli xil lokalizatsiyasi ularning turli xil biologik funksiyalarini ko'rsatadi, masalan r16 oqsili, ehtimol, virus kanserogenezda muhim rol o'ynaydi.



Rasm-7. Gepatit C virusining reproduksiyasi (Holmes J, Thompson A. Hepat Med. 2015;7:51–70).

Core HCV ning nukleokapsid oqsili bo'lib, u genotiplar orasida yuqori konservativlik darajada saqlanadi, prekursor polipeptidining N-terminal qismida (a.o. 1-191) lokalizatsiya qilinadi va 3 qismdan iborat: r21 molekulyar massasi 21 kDa, r19 molekulyar massasi 19 kDa bo'lib, infeksiyalangan hujayraning endoplazmatik retikulum membranasida joylashgan, r16 (16 kDa) esa yadro tarkibida topiladi. Asosiy oqsil komponentlari hujayraning mitoxondriyalari va lipid birikmalarida ham mavjud bo'ladi [132]. Virus oqsillarining turli xil lokalizatsiyasi ularning turli xil biologik funksiyalarini ko'rsatadi, masalan r16 oqsili, ehtimol, virus kanserogenezda muhim rol o'ynaydi.

Core oqsili apoptozni qo'zg'atishga qodir [71], immun javob paytida komplementga bog'liq mexanizm orqali T-limfotsitlar funksiyalarini ingibsiya qiladi [146] va interferon a genlarining transkripsiyasini sustlashtiradi [143]. Yadro oqsili yuzasida yuqori darajada saqlanib qolgan konservativ epitoplar mavjud

bo'lib, ularga qarshi antitelalarni aniqlash IFA reaksiyasini qo'llash orqali amalga oshiriladi.

Protein E1 (31 kDa) va E2 (70 kDa) virionning lipid qobig'ining tarkibiy qismidir. Ular kovalent bo'lmagan geterodimerik kompleks hosil qiladi, endoplazmatik retikulumda lokalizatsiya bo'laadi, prekursor polipeptidning N-terminal qismidan hosil bo'ladi. HCV ning E1 va E2 oqsillarining shakllanishi endoplazmatik retikulumda lokalizatsiya bo'lgan hujayra signal peptidazalari ishtirokida C/E1, E1/E2, E2/r7 i p7/NS2 ro'y beradi. Ushbu oqsillarni kodlaydigan genomning hududlari eng o'zgaruvchandir.

E2/HC1 hududi 2 ta giper o'zgaruvchan qismni o'z ichiga oladi: HVR1 va HVR2. HVR1, uzunligi 27 azotli asos, chiziqli virusni zararsizlantiradigan yagona epitoplardan iboratdir. E2/HC1 oqsilining HVR1 hududi virusni neytralizatsiyaga uchratuvchi antitelalar uchun nishon bo'lib, ularning shakllanishi T-yordamchi limfotsitlarning faollashuvi natijasida yuzaga keladi. Ushbu hududning geterogenligi immunitet tizimining aniq faollashishiga sababi bo'ladi. HCV infeksiyasining o'tkir bosqichida, HVR1 qismiga antitelalarning dastlabki ishlab chiqarilishidan boshlab, birinchi mutatsiya aynan shu zonada sodir bo'ladi [142].

Limfotsitlardagi CD81 retseptorlari bilan o'zaro ta'sir qiluvchi E2 oqsili immun reaksiyalar kaskadli qo'zg'atishi mumkin, bu esa o'z navbatida IL-8 ajralib chiqishiga sabab bo'lishi va qalqonsimon bez to'qimalarida autoimmun yallig'lanish rivojlanishi mumkin [39].

Genomning E2/HC1 uchaskasida r7 oqsil haqida ma'lumotlar mavjud. HCV genomini translyasiyasi maxsuli bo'lgan proteolitik polipeptidni birlamchi tahlili, dastlab 9 ta polipeptid hosil bo'lishini ko'rsatdi. Keyinchalik molekulyar og'irligi 7 kDa (r7) bo'lgan o'ninchi qisqa peptid topildi, u dastlab hosil bo'lgan polipeptidning bir qismi sifatida E2 glikoprotein va proteaza o'rtasida joylashgan. HC1 (r7) 747-809 aminokislota qoldiqlari bilan chegaralangan. Ushbu proteinning funksiyalari aniq ma'lum emas. r7 oqsili boshqa topologiyaga ega va hujayradan virus zarralarini chiqarishda rol o'ynashi mumkinligi haqida muloxozalar mavjud. Bundan tashqari, r7 HCV tarkibiy oqsillarining hujayralarga kirib borish

qobiliyatini tartibga solishi mumkin, bu uning zararlari infeksiyon omili hisoblanadi.

Strukturaviy bo'lmagan oqsillarni kodlaydigan genlar HCV genomining 3' qismida joylashgan. Bu oqsillar virusni replikatsiyasi va eg'ilishi va boshqa jarayonlarda qatnashadi.

Hozirgi vaqtda organizmning virusli infeksiyaga javob berishda ishtirok etuvchi gen regulyator mexanizmiga oʻxshash RNK-interferensiya funksiyasini bajaruvchi mikroRNKlarning toʻgʻrisida maʼlumotlar olingan [35,118]. MikroRNKlarni viruslar tomonidan kodlash boʻyicha maʼlumot 2004 yilga toʻgʻri keladi, bunda Epshtein-Barr virusida birinchi boʻlib mikroRNKlari topilgan [229]. Hozirgi vaqtda Epshtein-Barr virusi genomida kodlangan 44 ta yetuk mikroRNK lar maʼlum [230, 231].

Soʻnggi tadqiqotlar natijasida olingan maʼlumotlarga qaraganda koronavirusda virusli mikroRNK CoV2-miR-O7a mavjudligini koʻrsatildi. Tadqiqotchilar fikricha, ushbu mikroRNK interferon signalizatsiyasini tartibga solishi mumkin [232–234].

Oxirgi yillarda OIV, sitomegalovirus (SMV) va papillomavirus va boshqa viruslarda koʻplab mikroRNKlar topilgan [41, 42].

JSST maʼlumotlariga koʻra, 2023 yilda dunyo boʻylab 325 millionga yaqin odam gepatit B virusi bilan va kamida 200 million kishi gepatit C virusi bilan kasallangan. Butunjahon gepatit ittifoqi maʼlumotlariga koʻra, 2021 yil iyul holatiga koʻra, har yili 1,4 million kishi gepatit B va C virusidan vafot etadi. Ularning 2,7 millioni OIV va gepatit B bilan birgalikda (koinfeksiya) kasallangan. HBV virusi bilan infeksiya nafaqat gepatitning sababi, balki GSK rivojlanishi xavfini 100 baravar oshiradi [234].

Birinchi marotaba HBV virusida mikroRNK ni nisbatan yaqinda, 2017 yilda identifikatsiya qilingan. HBV-miR-3 HBV ning genining 373–393 nukleotidlari orasida joylashgan [235]. Keyinchalik mualliflar [236] ushbu

mikroRNK interferon keltirib chiqaradigan antivirus javobni aktivlashtirishi, shuningdek, M1 makrofaglarini polarizatsiya qilishi va IL-6 sekretsiyasini oshirish qobiliyati mumkinligini ma'lum qildi.

HBV-miR-3 o'simani supressiya qiluvchi PTEN mRNKning 3' mintaqasi bilan bog'lanib, uning translyasiyasini ingibitsiya qiladi, natijada o'sma hujayralarining apoptozdan qochishiga va ularning proliferatsiyasini oshirishga yordam beradi [237].

Gepatit B virusi tomonidan kodlangan yana bir mikroRNK 2022 yilda V. Loukachov va mualifdoshlari tomonidan topilgan. [238]. HBVmiR-6 HBV genomining 255 va 325 nukleotidlari orasida joylashgan. Mualliflar bu HBVmiR-6 virusli replikatsiyasida va virusni hujayradan tashqariga chiqarishda ishtirok etishini taxmin qilishadi. HBV namunalarida ilgari aniqlangan HBV-miR-3 dan farqli o'laroq, HBV-miR-6 kasallikning rivojlanishining ilk davr bosqichlarida aniqlangan, bu kasallikning turli bosqichlarida mikroRNKning ekspressiyasi o'zgarishidan dalolat berishi mumkin.

MikroRNKlarning muhim vazifalaridan biri hujayra infeksiyasi jarayonida va uning davom etishi paytida virus replikatsiyasini nazorat qilishdir. Misol uchun, hepatit C virusi (HCV) Flaviviridae oilasiga mansub kichik (50 nm) bir ipli RNK virusi bo'lib, surunkali jigar kasalligining eng keng tarqalgan formalaridan biridir. miR-122 jigarga xos bo'lib HCV replikatsiyasini va virusli RNK to'planishini taminlashi mumkin. miR-122 ning 2'-O-metillangan RNK oligonukleotid (2'-OMe-anti-miR-122) yordamida miR-122 ingibitsiya qilinishi avtonom replikatsiya qiluvchi virus RNK miqdori suspenziyasi 80% miqdorida kamayishiga sabab bo'ldi. SHunday qilib, miR-122 kelajakda antivirus terapiya uchun istiqbolli

maqsadli nishon bo'lishi mumkin, chunki miR-122 tez virus genomini ingibitsiya qilishi mumkin.

Bundan tashqari, mikroRNKlarni muhim mexanizmlari mavjud bo'lib, bu mexanizm asosida mikroRNK ho'jayin organizmida virusli infeksiyalarni cheklashlari va hujayralarni himoya qilishlari mumkin. Masalan, hujayra miR-32 si inson hujayralarida PFV -1 retrovirusining to'planishini samarali ravishda cheklaydi, chunki PFV -1 virusini kodlashtirishda qatnashuvchi Tas oqsiliga ta'sir qiladi [35].

Oxirgi yillarda mikroRNKlardan noinvaziv biomarkerlar sifatida foydalanish jigar kasalliklarida alohida qiziqish uyg'otmoqda.

Oxirgi tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, mikroRNKlar jigarda shakllanadi va uning turli funksiyalarini modulyasiya qiladi. MikroRNK ekspressiyasining buzilishi ko'plab jigar kasalliklarida, jumladan virusli gepatit, gepatotsellyulyar karsinoma va polikistik jigar kasalliklarida asosiy patogen omil bo'lishi mumkin.

So'nggi ilmiy ma'lumotlarga ko'ra, mikroRNKlar jigar to'qimalarining holatini, shu jumladan fibroz va kanserogenez jarayonlarini diagnostika qilish va monitoring qilish uchun potentsial markerdir. MikroRNK molekulalari barcha turdagi jigar to'qimalari hujayralarini, shu jumladan Kupffer hujayralarini tartibga solish va farqlashda ishtirok etadi deb taxmin qilinadi.

Misol uchun, sichqonlarning jigarida mikroRNK-122 ekspressiyasini ingibitsiya qilish, xolesterin va lipid almashinuvining pasayishiga olib keladi, mikroRNK-181 embrion jigarda ko'p miqdorda mavjud bo'lib, jigar organogenezinini tartibga soluvchi eng muhim miRNKlardan biridir. So'nggi tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqda-ki, mikroRNK-155, mikroRNK-29, mikroRNK-199 lar jigar to'qimalarida fibrotik o'zgarishlarning shakllanishiga hissa qo'shadigan gepatotsitar o'sish omili (HGF), o'sma nekrotik omil alfa (TNFa) ekspressiyasida ishtirok etishini ko'rsatadi [16].

Turli xil oʻziga xos miRNKlarning haddan tashqari koʻpayishi jigar fibrozini kechiktirishi yoki rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Shunday qilib, mikroRNK-21 ning regulyasiyasi gepatotsellyulyar karsinoma [17] rivojlanishiga yordam berishi mumkin.

MikroRNK-21 ning ortib borayotgan ekspressiyasi fibrozga sabab boʻladi, SMAD ning stimulyasiyasi transformatsion oʻsish omilining (TGFb) koʻpayishiga sabab boʻladi. TGFb- esa fibriogenezni muhim mediatr xisoblanadi va matriks metalloproteinaza 2 (MMR2)ning ekspressiyasini taminlaydi, bu esa hujayralararo matriksni va fibroblastlarning infiltratsiyasiga sabab boʻladi.

Hayvonlarda oʻtkazilgan tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, mikroRNK-21 ning funksional modulyasiyasi hujayra proliferatsiyasini va gepatotsitlar faolligini ragʻbatlantiradi, shuningdek hujayra oʻlimini kamaytiradi. MikroRNK-21 ning oʻziga xos ingibitorlarini oʻrganish, hujayra proliferatsiyasining intensivligi va jigar hujayralarining hayotiy faolligining pasayishiga sabab boʻldi, bu quyidagi miRNKning funksional effektini aniqlaydi.

Oxirgi tadqiqotlar shuni koʻrsatdiki, gepatotsellyulyar karsinoma, jigar sirrozi va surunkali gepatit B bilan ogʻrigan bemorlarning qon zardobida oshqozon saratoni bilan ogʻrigan bemorlar va sogʻlom odamlar koʻrsatkichlari bilan solishtirganda miRNA885 ekspressiyasi ishonarli darajada yuqori ekanligi aniqlanadi. Boshqa tadqiqotchilar surunkali gepatit B boʻlgan bolalar va kattalarda mikroRNK-885 ning ishonarli koʻpayishini tasdiqladilar.

2.6. MikroRNK aniqlashda tadqiqot usullari...

Tadqiqotchilar fiziologik va patologik jarayonlarda mikroRNKlarning rolini intensiv ravishda oʻrganayotgan boʻlsalar-da, mikroRNKlarni ajratib

olish uchun bir nechta texnologiyalar ishlab chiqilgan. Biroq, ajratilgan mikroRNKlarning barqarorligiga ko'pincha savllar tug'iladi [109]. MikroRNKlar mRNKlarga qaraganda ancha oson lizisga uchraydi, qisman ularning uzunligi tufayli, shuningdek, RNKazalarning doimiy mavjudligi tufayli. Shuning uchun namunalar muz ustida sovutilishi kerak va mikroRNKlar bilan ishlash uchun faqat RNKazsiz uskunalardan foydalanish kerak [101,147].

MikroRNK ekspressiyasi ikki bosqichli polimeraza zanjiri reaksiyasida (PZR) miqdoriy aniqlash mumkin: birinchi etap teskari transkripsiyali PZR, so'ngra real vaqtda PZR. MikroRNKlarning mutlaq yoki nisbiy miqdorini aniqlash uchun ushbu usulning variatsiyalari mavjud [53,148]. MikroRNKlar, shuningdek, yuzlab yoki minglab mikroRNK nishonlarining namunalari bilan mikrochiplar bilan gibridizatsiyalanish mumkin va shu bilan turli namunalardagi miRNKlarning nisbiy miqdori aniqlaydi [54].

Yangi mikroRNKlarni topish va ularning ketma-ketligini yuqori o'tkazuvchanlik sekvensiyasi usullari (mikroRNK ketma-ketligi) yordamida tavsiflash mumkin [49]. MikroRNKlarning faolligi eksperimental usulda yopiq nuklein kislota oligonukleotidlari yordamida (angl. *Lockednucleicacid*, *LNA*) susaytirish mumkin. [67,93], shuningdek, 2'-O-metil guruhiga ega bo'lgan oligoribonukleotid [103] yordamida eksperimental ravishda ingibitsiya qilish mumkin. Bundan tashqari, mikroRNKlarni qo'shimcha komplementar oligonukleotid, antagomir yordamida o'chirib qo'yish mumkin.

MikroRNKning etilishini fazoviy blokirovka qiluvchi oligonukleotidlar yordamida bir necha nuqtada to'xtatish mumkin [94]. Ular, shuningdek, mikroRNK bilan bog'lanuvchi mRNK saytini blokirovka qilish uchun ham ishlatilishi mumkin [54]. MiRNKlarni (*insitu*) joyida aniqlash uchun LNK[147] yoki morfolino[96] problaridan foydalanish mumkin. LNK yopiq

konformatsiyaga ega bo'lgani uchun u gibridlanish qobiliyatini, sezuvchanligini va o'ziga xosligini oshirib, uni mikroRNKni aniqlash uchun ideal zondga aylantiradi[89].

2.6.1.Qondan mikroRNKni ajratib olish usullari

Yuqori sifatli mikroRNK preparatlarini olish, shubhasiz, ularni tahlil qilishning asosiy bosqichidir. Aylanib yuruvchi qon mikroRNKlarining tavsiflangan tadqiqotlarida biologik materialning manbalari plazma yoki zardob xisoblanadi.

Vaqt o'tishi bilan marker molekulalarining ifodalanishining barqarorligi, ya'ni fiziologik omillarga bog'liq holda qonda ularning darajasida tebranishlarning yo'qligi kasallik belgilariga qo'yiladigan asosiy talablardan biridir. Biroq, ma'lumki, demografik xususiyatlar, shuningdek, jismoniy faollik, turmush tarzi, ovqatlanish va dori-darmonlar qondagi mikroRNK konsentratsiyasi va ekspression profiliga ta'sir qiladi [102a].

Kellers va hammualliflar [89a] RL (tashxisdan oldin va keyin) va sog'lom donorlarda turli vaqtlarda (2 kundan 32 kungacha) olingan qon zardobi namunalardagi 904 mikroRNK profilini o'rgandilar. Mualliflar mikroRNK profili bir necha yillar davomida barqaror ekanligini ifodalashdi va sezilarli o'zgarishlar tashxis vaqtiga yaqinroq aniqlanganligini ko'rsatishdi.

Bir necha yillardan keyin xuddi shu mualliflar tomonidan olib borilgan va o'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, o'rganilgan 529 ta zardobidagi mikroRNKning 168 mikroRNK si konsentratsiyasi vaqt o'tishi bilan o'zgargan, 56 mikroRNK darajasi esa individual o'zgarishlarga duchor bo'lgan va 169 mikroRNK materialni olish bilan bog'liq bo'lgan o'zgarishlarga duchor bo'lgan, yoki qon namunalarini qayta ishlashda o'zgargan. Faqat qolgan 135 mikroRNK zardobda ko'proq yoki kamroq ekspressiyasining barqarorligi saqlangan [89b].

Namuna tayyorlash bosqichida asosiy strategik qaror qon namunalaridan mikroRNKni ajratib olish usulini tanlashdir. MikroRNKni biologik suyuqliklardan ajratib olish usuli tahlil uchun mos mikroRNK preparatlarini ishlab chiqarishga to'sqinlik qiluvchi uchta asosiy muammoni samarali hal qilishi zarur:

1. MikroRNKni qondagi degradatsiyadan himoya qiluvchi komplekslarni to'liq yo'q qilishni ta'minlash

2. Ajratib olish jarayonida mikroRNKni qon plazmasida mavjud bo'lgan RNK gidrolizlovchi fermentlardan himoya qilish.

3. Proteinlar, lipidlar, lipoproteinlar, proteoglikanlar, polisaxaridlar, past molekulyar og'irlikdagi moddalar va boshqalarni o'z ichiga olishi mumkin bo'lgan teskari transkripsiya yoki polimeraza zanjiri polimeraza reaksiyasini aralashmalar bilan mikroRNK preparatining ifloslanishini oldini olish.

Hozirgi vaqtda qo'llaniladigan va qondan mikroRNKlarni ajratib olishning mashhur usullaridan katta qismi 1987 yilda Chomczynskis va uning hamkasblari tomonidan taklif qilingan kislotali fenol-guanidin ekstraksiyasidan foydalanishga asoslangan [53]. Bu usul RNK, DNK va oqsil fraksiyalarini samarali fraksiyalash imkonini beradi va RNK ajratib olishda "sifatning oltin standarti" hisoblanadi. Qondan mikroRNKni ajratib olish uchun tijoratda mavjud bo'lgan to'plamlarga TRIzolLS (LifeTechnologies, SSHA), miRVANA (LifeTechnologies, SSHA) va boshqalar kiradi.

Ekstraksiyadan keyin qisqa RNKlar bilan preparatlarni tozalash va boyitish uchun qattiq fazali sorbentlar bilan ustunlarda qo'shimcha tozalash bosqichi qo'llaniladi [104a]. Bu usul samarali va keng qo'llanilishiga qaramay, amalda ekstraksiya protokolinig uzunligi va mehnat intensivligi (ekstraksiya 40 dan 60 minutgacha koo'p vaqt talab etiladi), reaktivlarning yuqori sifati kabi bir qator kamchiliklarga ega (birinchi navbatda, fenol), protsedurani bajarishdagi qiyinchilik va samaradorlikning tadqiqotchining

malakasiga bog'liqligi ham xisobga olish zarur. Bundan tashqari, fenoldan foydalanish qo'shimcha jihozlar, ish joyi va zaharli chiqindilarni yo'q qilish tizimini talab qiladi, bu esa klinik amaliyotda mikroRNKni muntazam izolyasiya qilish usulining yaroqliligini pasaytiradi. Usulning eng jiddiy kamchiligi shundaki, Kim va hammualliflarning fikriga ko'ra, uni qo'llashda guanin va sitozin miqdori past bo'lgan RNKning qisman yo'qolishi sodir bo'ladi [63a]. Bundan tashqari, mikroRNK izolyatsiyasining samaradorligini boshqa ajratish usullari bilan taqqoslash ko'pincha fenol-xloroform ekstraksiyasi uchun noqulay bo'lib chiqadi [90a].

Aylanib yuruvchi mikroRNKlarni ajratib olishning muqobil yondashuvlari taklif qilingan [99a]. Masalan, miRCURY to'plamida (Exiqon, Daniya) ko'p mehnat talab qiladigan organik ekstraksiya usullari o'rniga xususiy reagentlar yordamida denaturatsiya qiluvchi vosita bilan ishlov berilgan namunadan oqsillar va lipoproteinlar cho'ktiriladi, so'ngra mikroRNK ustunlarda tozalanadi. Ushbu usul tartibi ekstraksiya vaqtini sezilarli darajada qisqartiradi (30 daqiqagacha) va juda zaharli kimyoviy vositalardan foydalanmaydi. Bundan tashqari, bir nechta tadqiqotlarda mualliflar bu yondashuv hech bo'lmaganda fenol-xloroform ekstraksiyasi kabi samarali ekanligini ko'rsatishgan, ammo mikroRNK-ketmalash tahlili uchun olingan preparatlardan foydalanish uchun qo'shimcha fosforlanish bosqichi talab qilinishi mumkinligi haqida dalillar mavjud. Biroq, bu usulning kamchiliklari ham bo'lishi mumkin, chunki ba'zi mikroRNKlar komplekslarning to'liq denaturatsiyasi tufayli va/yoki mikroRNKlarning biopolimerlar bilan birgalikda cho'kishi natijasida yo'qolishi mumkin.

Hozirgi kunda metodologiyaaning sezilarli darajada rivojlanishiga qaramay, muammoga ko'ra, mikroRNKni qondan ajratishning maqbul usuli mavjud emas va bu muammoni hal qilishning yangi yondashuvlarini ishlab chiqish va optimallashtirish bo'yicha ishlarni davom ettirish zarur.

2.6.2. MikroRNK kontsentratsiyasini aniqlash usullari

Namunalarda individual mikroRNKlarning ifodasini miqdoriy aniqlash uchun kichik RNK ketma-ketligi, gibridizatsiya mikrochip tahlil usullari va miqdoriy OT-PZRga asoslangan yondashuvlar qo'llaniladi.

Ketma-ketlik (Sekvenirovanie). RNK ketma-ketligi aylanib yuruvchi mikroRNKlarni o'rganish uchun keng ko'lamli va samarali usuldir. Boshqa usullardan asosiy farqi barcha mikroRNKlar (shu jumladan, ilgari noma'lum bo'lganlar), ularning prekursorlari va boshqa RNKlarning ifodasini bir vaqtning o'zida tekshiruv materialida o'rganish mumkindir, bu esa namunadagi RNKning butun spektrini baholash imkonini beradi. SHu bilan birga, bu usulning bir qator aniq kamchiliklari ham bor.

Bu usulning boshlang'ich davrida ko'p miqdorda RNK talab qilinadi, bu biologik suyuqliklar bilan ishlashda har doim ham mavjud emas. RNKning ketma-ketlashtirishga tayyorlash nisbatan uzoq vaqt talab etadi va uskunalari va sarf materiallari narxi ancha yuqori. Manbalarni ketma-ketlikka tayyorlash jarayonida bog'lash va oldindan kuchaytirish bosqichlari namunadagi individual mikroRNKlarni ko'rsatishda tizimli xatolarni keltirib chiqarishi va hatto noyob ketma-ketliklar va izoformlarning yo'qolishiga olib kelishi mumkin [118a]. Turchinovich va boshqalar mikroRNKlarni ajratib olishda quyidagi usulni taklif qilishdi CATS (Capture and Amplification by Tailing and Switching). Matritsani o'zgartirish qobiliyatiga xos bo'lgan ferment hisobidan mikroRNK adapterlarni liadenislash va keyinchalik sichqoncha leykoz virusining (MMLV-RT) orqaga qaytaruvchi transkriptaza fermenti yordamida zanjirni sintezlashni taklif qilishdi [137a]. Langevin va hamkasblari o'xshash prinsipga asoslangan Peregrine RNK tarqatish uchun bibliotekalar tayyorlash usulini taklif qilishdi [96a].

Sekvenirlash natijasida olinadigan ma'lumotlar maxsus ishlov berishni

talab qiladi, natijasi ko‘pincha har bir aniq holatda tanlangan bioinformatik yondashuvga bog‘liq bo‘lib, o‘qishni tekislash va annotatsiya qilishda mikroRNK kichik uzunligi tufayli muammolar yuzaga kelishi mumkin [50a].

Keltirilgan sabablar sekvenirlash natijasida tadqiqotlar o‘rtasida katta farqlar vujudga kelishi mumkin va har doim mustaqil verifikatsiya qilishni talab etadi, masalan OT-PZR yordamida [97a].

Mikrochip tahlili. MikroRNK ekspressiyasini tadqiqotda mikrochipli gibrizatsiya tahlilidan ham foydalanish mumkin. Sekvenirlashdan farqli o‘laroq, mikrochip tahlili muayyan cheklangan mikroRNK yig‘imining ekspressiyasini tadqiq qilishga va yuzlab mikroRNKlarni parallel ravishda detektatsiya qilish imkonini beradi. Sekvenirlash holatidagi kabi, mikrochiplarda tahlil qilish uchun ko‘proq boshlang‘ich miqdordagi RNK (100 dan 1000 ng gacha RNK) zarur bo‘ladi va, odatda, ma’lumotlarga xato kiritishi mumkin bo‘lganda pre-damplifikatsiya talab qilinadi [51]. Bunday tahlil boshqa usullarga nisbatan kam maxsuslikka ega, biroq qiymat narxi kam bo‘lgani uchun katta guruhdagi bemorlarning mikroRNK ekspressiyasi profillarini solishtirish imkonini beradi. Shu bilan bir qatorda OT-PZR yordamida mikrochipli tahlil natijalarini verifikatsiyalash talab etiladi.

Bugungi kunda ushbu yo‘nalishning bir necha modifikatsiyasi taklif etilgan. Jumladan, Nanostring nCounter tizimi mikroRNK multipleks tahlilini o‘ziga xos fluoressentik qismli zondlardan foydalanish hisobiga o‘tkazish imkonini beradi [150]. MikroRNK erish temperaturasidagi farqlar hisobidan kelib chiqadigan xatolarni bartaraf etish uchun LNA asosidagi zondlardan foydalanish mumkin [151].

Umuman olganda, mikrochip tahlili namunadagi mikroRNK taxminiy spektri ma’lum bo‘lgan hollarda oddiy va arzon alterantiv sekvenirlash hisoblanadi.

Xulosa. Bu borada so‘nggi 10 yildagi adabiyot manba ma’lumotlarni

tahlil qildik. SHunday qilib, surunkali virusli hepatit B va C butun dunyo bo'ylab jigar kasalliklari kelib chiqishiga katta hissa qo'shib, jigar fibrozi, jigar sirrozi va hepatotsellyulyar karsinoma rivojlanish xavfini oshiradi. Oxirgi tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, mikroRNKlar jigarga ekspressiyalanadi va uning turli funksiyalarini boshqaradi va modulyasiya qiladi. MikroRNK ekspressiyasi va uning jigar patologiyasida qatnashishida, ko'plab jigar kasalliklari, jumladan virusli hepatit, hepatotsellyulyar karsinoma va jigar polikistozi kasalliklari asosiy patogen omil bo'lishi mumkin. So'nggi ilmiy ma'lumotlarga ko'ra, mikroRNKlar jigar to'qimalarining holatini, shu jumladan fibroz va kanserogenez jarayonlarini diagnostika qilish va monitoring qilish uchun potensial marker bo'lishi mumkin. MikroRNK molekulalari barcha turdagi jigar to'qimalari hujayralarini, shu jumladan Kupfer hujayralarini tartibga solish va farqlashda ishtirok etadi deb taxmin qilinmoqda. So'nggi tadqiqotlar jigar to'qimalarida fibrotik o'zgarishlar shakllanishiga hissa qo'shadigan hepatotsitlar o'sish omili (HGF), o'simta nekroz qilish omili alfa ($TNF\alpha$)ning jigar patogenezida qatnashuvi mikroRNK-155, mikroRNK-29, mikroRNK-199 ishtirokida ro'y berar ekan. Turli xil o'ziga xos miRNKlarning haddan tashqari ko'payishi jigar fibrozini kechiktirishi yoki rivojlanishiga olib kelishi mumkin. SHunday qilib, mikroRNK-21 ning regulyasiyasi hepatotsellyulyar karsinomaning rivojlanishiga yordam berishi mumkin.

Kasallikni, uning o'ziga xos mikroRNKlarini va ularning tartibga solish mexanizmlarini o'rganish bir qator virusli kasalliklarni, shu jumladan V va S hepatitlarini kechishini tezroq va aniqroq bashorat qilish va tashxislash uchun istiqbolli skrining vositasiga aylanishi mumkin bo'lgan aylanib yurovchi mikroRNKlarning rolini aniqlashga yordam beradi. SHu bois bu borada olib borilayotgan ilmiy ishlar juda dolzarb, deb hisoblagadi.

III -BOB. TADQIQOT MATERIALLARI VA USULLARI

Ushbu ilmiy izlanish O'zbekiston Respublikasi Virusologiya ilmiy-tadqiqot institutida davolangan surunkali jigar kasalliklari bilan og'rigan 76 nafar bemor o'rtasida o'tkazilgan tekshuruv ma'lumotlariga asoslangan. Referens laboratoriya mudiri t.f.n. Alieva L.E., O'zbekiston Respublikasi Virusologiya ilmiy-tadqiqot instituti direktori professor Musabaev E.I.

3.1. O'tkazilgan tadqiqotning ko'lami, tabiati va usullari.

Ushbu izlanishda qo'yilgan muammolarni hal qilish uchun quyidagi tadqiqot usullari qo'llanildi:

- umumiy klinik tadqiqotlar va laboratoriya usullari;
- molekulyar genetik usullar;
- statistik tahlil.

2.1.1. Surunkali gepatit kasalliklari uchun umumiy klinik tadqiqotlar;

4-jadval.

Surunkali virusli gepatit uchun o'tkazilgan tadqiqotlarning umumiy soni

№	Tekshuruv usullari	Tekshuruv miqdori	
		SGB (n=36)	SGC (n=40)
1	Umumiy klinik qonni tekshirish (umumiy qon tahlili)	36	40
2	Umumiy siydik tahlili.	36	40
3	Biokimyoviy qon tahlili (18 ko'rsatkich)	36	40
4	IFA yordamida qondagi SGB va SGC virus markerlarini aniqlash	36	40
5	PZR yordamida qon tarkibidagi HCV RNK sini va HBV ni i DNK sini miqdoriy baholash	26	27
6	Molekulyar genetik tadqiqotlar. Surunkali	26	27

	virusli gepatit B va C bilan ogʻrigan bemorlarning qon plazmasidagi mikroRNK-199a va 155 ning tarkibini aniqlash.		
	Jami	196	214

Bemorlar, oʻtkazilgan tadqiqotga qarab, quyidagi guruhlariga boʻlindi; Birinchi guruhga SGB bilan kasallangan 36 bemor kiradi. Ikkinchi guruhga surunkali gepatit C bilan kasallangan 40 nafar bemor kirdi (2.2-jadval). Bemorlarning koʻpchiligi 18 yoshdan 50 yoshgacha boʻlgan (81,6%) mehnatga layoqatli yoshdagi erkaklar va ayollar boʻlgan. 24 nafar erkaklar (46,1%) va 28 nafar ayollar (53,8%). Biz tekshirgan bemorlar orasida surunkali gepatit C bilan kasallangan yoshlar koʻpchilikni tashkil etdi, ularning oʻrtacha $37,2 \pm 1,41$ yoshni tashkil etdi. Surunkali gepatit B bilan ogʻrigan bemorlarning oʻrtacha yoshi $46,2 \pm 2,02$ tashkil etdi, bu surunkali gepatit B bilan ogʻrigan bemorlarning koʻrsatkichlaridan ($R < 0,001$) ishonarli darajada farq qildi. Nazorat guruhi SVGB va SVGC infeksiyasining belgilariga ega boʻlmagan 30 nafar sogʻlom odamlardan iborat boʻldi.

SGB va SGC bilan ogʻrigan bemorlarning tashxisi Oʻzbekiston Respublikasi Sogʻliqni saqlash vazirligining 2000-yil 30-oktabrdagi “Respublikada virusli gepatit bilan kasallanish darajasini pasaytirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi 560-sonli buyrugʻiga asosan oʻtkazildi. SGB va SGC bilan kasallangan bemorlar odatda kasallikning kuchayishi boshlanganidan 1-5 kun oʻtgach kasalxonaga yotqizilgan va ambulatoriya sharoitida ham kuzatilgan. SGB va SGC diagnostikasi klinik koʻrinishlarga asoslangan edi: kasallikning bosqichma-bosqich boshlanishi, kasallikning sekinlik bilan rivojlanishi, intoksikatsiya va dispeptik sindromlarning xarakterli xususiyatlari, hepatomegaliya; epidemiologik tahlil maʼlumotlari - oxirgi 6

Surunkali virusli gepatit bilan ogʻrigan bemorlarning jinsi va yoshi boʻyicha tekshirilganlar soni

Surunkali virusli gepatit		Ayollar						Erkaklar					Jami
		18-29 yosh	30-39 yosh	40-49 yosh	50-59 yosh	60 va undan katta	jami	18-29 yosh	30-39 yosh	40-49 yosh	50-59 yosh	60 va undan katta	
SVGC	abs.	5	9	9	2	-	25	3	6	4	1	1	15
	% da	12,5	22,5	22,5	5		62,5	7,5	15	8	2,5	2,5	37,5
SVGB	abs.	1	6	9	4	1	21	1	4	5	4	1	15
	% da	2,8	16,7	25	11,2	2,8	58,5	2,7	11,1	13,9	11,1	2,7	41,5
Jami tekshirilganlar	abs.	6	15	18	6	1	46	4	10	9	5	2	30
	% da	7,9	19,7	23,7	7,9	1,3	60,5	5,3	13,2	11,8	6,6	2,6	39,5

oy davomida parenteral aralashuvlar, SGB va SGC bilan kasallangan bemorlar bilan aloqa qilish.

SVGB infeksiyasining tashxisi IFAda HBsAg, HBeAg aniqlanishi bilan tasdiqlangan. antiHBe-, anti Hbcore IgM i IgG aniqlanganda, tashxis HBV DNK PZR bilan tasdiqlangan. Oxirgi verifikatsiyada va boshqa virusli gepatitni istisno qilish uchun qon zardobi anti-HAV IgM va anti-HDV IgM uchun sinovdan o'tkazildi.

Surunkali virusli gepatit C tashxisini tekshirishda biz etiologik tamoyilga asoslanib Los-Anjelesdagi Butunjahon gastroenterologlar kongressi (1994) tomonidan qabul qilingan surunkali gepatitning xalqaro tasnifidan foydalandik.

Klinik tashxisga aniqlik kiritish XKT-10amalga oshirildi, surunkali virusli gepatit C (B17.1.) ga muvofiq 6 oydan ortiq gepatit C virusi RNK va ferment bilan bog'liq immunoferment tahlili (IFA) bilan aniqlangan boshqa serologik belgilar mavjudligini hisobga olgan holda (test tizimlari yordamida "Vektor-Best" YOAJ (Novosibirsk, Rossiya)amalga oshirildi. Surunkali gepatit C bilan kasallangan bemorlarda polimeraza zanjiri reaksiyasi (PZR) usuli yordamida Vektor-Best ZAO (Novosibirsk, Rossiya) test tizimlaridan foydalanildi.

Barcha bemorlar virusli yukni aniqlash uchun sinovdan o'tkazildi. Qon plazmasida DNK HBV va RNK HCVni aniqlash va virus yukini aniqlash Federal Davlat byudjet muassasasi Markaziy Epidemiologiya ilmiy-tadqiqot institutining «AmpliSens HBV-Monitor-FRT» i «AmpliSens HBV» test tizimlaridan foydalangan holda PZR yordamida amalga oshirildi. Rospotrebnadzor (Rossiya) tamonidan sertifikatlangan pastki aniqlash chegarasi 300 nusxa / ml, natijalar log kopiy/ml. sifatida taqdim etiladi. Genotiplash uchun genom bo'laklarini kuchaytirish Rossiya Tibbiyot fanlari akademiyasining Shimoli-g'arbiy bo'limining Gripp ilmiy-tadqiqot institutida ishlab chiqilgan usul yordamida turga xos praymerlar yordamida amalga oshirildi. HBV DNK fragmentlarining ketma-

ketligi Applied Biosystem (AQSH) kompaniyasining ABI PRISM 3100 genetik analizatorida amalga oshirildi.

Umumiy klinik qon tekshiruvi gemoglobin, eritrotsitlar, trombositlar va leykotsitlar darajasini, leykotsitlar formulasi va ECHT hisoblash bilan aniqlashni o'z ichiga oladi. Siydikni umumiy tahlil qilishda uning nisbiy zichligi, reaksiyasi, oqsil, shakar, aseton tanalari, urobilin va safro pigmentlarining tarkibi o'rganildi.

Siydik cho'kmasining mikroskopiyasi qizil qon tanachalari, oq qon hujayralari, tuzlar, quyma va siydik yo'llarining epiteliysi mavjudligini aniqlash bilan baholadi. Biokimyoviy qon tekshiruvi paytida bilirubin, xolesterin, umumiy protein, albumin, globulin, karbamid, kreatinin, glyukoza, qon zardobida temir va natriy, ALT, AST, IF, GGTP, amilaza faolligi (Spektr biokimyoviy testida). analizator Hitachi, Yaponiya) aniqlandi .

3.2. MikroRNK ni aniqlash, molekulyar genetik usullar

Ilmiy ishda quyidagi materiallar ishlatilgan: $MgCl_2$, $NaCl$, KCl , $(NH_4)_2SO_4$, $LiClO_4$, $CaCl_2$, natriy asetat, 2-merkaptotanol, dietilpirokarbonat, N-lauroilsarkosin (Sarkosyl), poliakrilamid, N-N'-metilen-bisakrilamid, karbamid, ditiotreitol (DTT), spermidin, tris, glitsurin, GITS, EDTA, Tveen 20 (Sigma-Aldrich); nukleotid trifosfatlar (dNTP), PZR uchun bufer, teskari transkripsiya uchun (BiolabMix, Rossiya, Rossiya); glikogen, ribonukleaza ingibitori RiboLock (Fermentas, Litva);

RNK elutsiyasi uchun eritma (Biosilika, Rossiya); va fermentlar: T4 polinukleotid kinaza, termostabil (Taq) DNK polimeraza (BiolabMix, Rossiya), sichqon leykemiya virusining teskari transkriptazasi b.f.d. Xodireva S.N.tamonidan (Fermentlarning bioorganik kimyosi laboratoriyasi, Kimyoviy biologik fizika instituti, Rossiya Fanlar akademiyasi Sibir filiali, Novosibirsk, Rossiya) etkazib berildi.

Barcha eritmaları tayyorlash uchun biz Arium 611 VF qurilmasida olingan deionizatsiyalangan pirogensiz suvdan foydalandik. Ribonukleazlar bilan potentsial ifloslanishning oldini olish uchun suv dietil pirokarbonat (0,1%) bilan

kamida 4 soat davomida inkubatsiya qilingan va keyin reagentni inaktivatsiya qilish uchun avtoklavlandi.

Ilmiy ishda quyidagi texnik jihozlardan foydalanildi: suv tozalash apparati Arium 611 VF (Sartorius stedim biotech, Germaniya); rN-metr Sartorius PB-11 (Sartorius stedim biotech, Germaniya); sentrifuga Heraeus Pico 17 (Thermo Scientific, Germaniya); ; sovutishli sentrifuga Eppendorf 5810R (Eppendorf, Germaniya); sentrifuga J21 (Bekman, Buyuk Britaniya);; sheyker Vortex-genie 2 (Scientific Industries, AQSH); spektrofotometr Genesys UV Genesys 10uv (Thermo Scientific, AQSh); PZR kuchaytirgichlari iCycler iQ5 (BioRad, AQSH) va LightCycler480 II (Roche, SHveysariya); termotsikler TProfessional Basic Thermocycler (Biometra, Gyotingen, Germaniya); sintillyasion R-zarrachalar hisoblagichi Tri-Carb 2800 TR (PerkinElmer,AQSH). Nuklein kislotalarni sorbsiyalash uchun shisha tolali filtrli mikrokolonkalar (Bio Silika MCHJ, Rossiya).

Ishlab chiqaruvchining metodik ko'rsatmalariga muvofiq (QIAGEN, Germaniya) «MiRNeasy Serum/ «MiRNeasy Serum/Plasma Kit» nabor to'plamidan foydalanib, umumiy RNK qon plazmasidan ajratildi. Reaksiyani normallashtirish va ichki nazorat sifatida K«MiRNeasy Serum/ Plasma Spike-In Control» naboridan va uning tarkibidagi C.elegans miR-39 miRNA mimic to'plami ishlatildi. Teskari transkripsiyali PZR (PKR-dan) «MiScript II RT Kit» (QIAGEN, Germaniya)yordamida amalga oshirildi.TT- PZR reaksiyasi shartlari: 37 ° C-60 min; 95°S-5 min. Real vaqt rejimida PZR «MiScript SYBR® Green PCR Kit» (QIAGEN, Germaniya) yordamida amalga oshirildi.

Ichki nazoratni aniqlash uchun universal teskari praymer, oldinga qarab Ce_miR-39_1 miScript® Primer Assay va maxsus teskari praymerlar (mikroRNA-199a va mikroRNA-155) (QIAGEN, Germaniya). ishlatildi. PZR shartlari: 95 ° C- 15 min; 94°C-15 sek.; 55°C 30 sek; 70 ° C - 30 sek - 40 sikl.

3.2.1. Qon namunalarini va plazmani ajratib olish. Jami RNK qon plazmasidan «MiRNeasy Serum/Plasma Kit» to'plami yordamida ishlab chiqaruvchining ko'rsatmalariga muvofiq (QIAGEN, Germaniya), tarkibida

K2EDTA (18 mg) 10 ml hajmgacha ajratildi. Material olingandan so'ng, probirkalar 10 soniya davomida teskari aylantirish orqali aralashtiriladi va 4 ° C da 4 soatdan ko'p bo'lmagan vaqtda, ishlov berilgunga qadar saqlanadi. Hujayrasiz fraksiya yangi probirkaga o'tkaziladi va 1200* g da 20 daqiqa davomida sentrifuga qilindi; supernatant yig'ib olindi va -80 ° C da alikvotlarda saqlandi. Eritgandan so'ng, kriopresipitatlardan tozalash uchun namunalar 3000* g da 5 daqiqa davomida sentrifuga qilindi.

3.2.2. Bir fazali usul yordamida qon plazmasidan mikroRNK preparatlarini olish.

2 ml kolbadagi 150 mkl hajmdagi plazma namunasiga 4,5 mkl 2-merkaptotanol va 300 mkl denaturatsiya qiluvchi bufer (6 M GITS, 15 mM Tris-asetat, rN 6,5) qo'shildi, aralashtirildi va 5 min inkubatsiya qilindi xona haroratida. Olingan probirkadagi eritmaga 1,35 ml etanol-xloroform eritmasi 2:1 qo'shildi, yaxshilab aralashtirildi, xona haroratida 5 daqiqa davomida inkubatsiya qilindi va Heraeus Pico 17 ish stoli sentrifugasida 17000g 5 daqiqa davomida sentrifuga qilindi. Supernatant vakuum nasosi yordamida shisha tolali filtrli kolonkaga olinadi va qo'shilmalar olib tashlandi. Kolonka ikki marta bufer (1 M GITS, 2,5 mM Tris-asetat, 50% etanol, 25% xloroform, 1% 2-merkaptotanol) bilan Heraeus Pico 17 ish stoli sentrifugasida 400 g , 1 daqiqada yuviladi. Ikkinchi yuvish o'zgarishidan so'ng, kolonka 1 daqiqa davomida 17000 g da sentrifuga qilindi. Keyin kolonka ikki marta bufer (10 mM Tris-HCl, pH 7,5, 0,1 M NaCl, 75% etanol) bilan 400g , 1 daqiqada yuvildi. Ikkinchi yuvish o'zgarishidan so'ng, ustun 17000 g, 1 daqiqada sentrifuga qilindi. RNK elusiyasi uchun kolonka xona haroratida 10-15 daqiqa davomida 120 mkl RNK eritmasi bilan inkubatsiya qilindi. Elyuat 400 g, 1 min va 10000 g, 1 daqiqada ketma-ket sentrifugalash orqali to'planadi va muzda yoki -20 ° C da saqlanadi.

3.2.3. Kislotali fenol-xloroform bilan ekstraksiya yordamida qon plazmasidan mikroRNK preparatlarini tayyorlash.

Qon plazmasi RNK preparatlari Chomczynski i Sacchi [538]. tomonidan modifikatsiya qilingan protokol yordamida olindi. 300 mkl plazmada, 435 mkl

denaturatsiya qiluvchi bufer (6,75M GITS, 15 mM Tris-atsetat, rN 6,5, 0,75% (w/v) Sarkosyl, 1,5% 2-merkaptotanol), Sarkosil 1,5% 2-merkaptotanol) sekinlik bilan qo'shib borildi va 73 mkl atsetat natriya qo'shiladi, pH 4.0, Vor-tex da aralashtirildi. Olingan aralashmaga 735 mkl suv bilan to'yingan fenol qo'shildi va inversiyasi probirkalarda aralashtirildi.

Suvli va organik fazalarni ajratish uchun 150 mkl xloroform aralashmasi: izoamil spirti (49:1) qo'shildi, 10 soniya chayqatish orqali aralashtiriladi va muzda 15 daqiqa davomida inkubatsiya qilinadi. Fazalarni ajratishni yakunlash uchun hosil bo'lgan aralashma 4 ° C da 20 daqiqa davomida 10000 g da sentrifuga qilindi.

Yuqori suvli faza yig'ilib, yangi probirkaga o'tkazildi. Olingan suvli fazaning hajmi taxminan plazma va denaturatsiya qiluvchi tamponning umumiy hajmiga teng bo'lsa (bu holda, 735 mkl). Suvli fazaga teng hajmdagi etanol qo'shildi va vakuum kolonkasi yordamida shisha tolali filtrlı ustunga (OOO BioSilika, Novosibirsk, Rossiya)) qo'yiladi. Sliv olib tashlandi. Kolonka ikki marta bufer (4 M GITS, 10 mM tris-atsetat, 50% etanol, 1% 2-merkaptotanol) bilan Heraeus Pico 17 stol usti sentrifugasida 400 g, 1 daqiqada yuvildi. Ikkinchi yuvish o'zgarishidan so'ng, ustun 17000 g, 1 daqiqada sentrifuga qilindi. Keyin kolonka ikki marta bufer (10 mM tris-HCl, pH 7,5, 0,1 M NaCl, 75% etanol) bilan 400 gg, 1 daqiqada yuvildi. Ikkinchi yuvish o'zgarishidan so'ng, ustun 17000 gg, 1 daqiqada sentrifuga qilindi. Ribonuklein kislotalarni elutsiya qilish uchun kolonka xona haroratida 10-15 daqiqa davomida eritmada, RNK elutsiyasi uchun 120 mkl eritma (OOO BioSilika) bilan inkubatsiya qilindi. Elyuat 400 g, 1 min va 10000 g da 1 min. ketma-ket sentrifugalash orqali yig'ildi.

3.2.4. RNK ning izopropanol bilan cho'ktirilishi.

120 mkl obiyomdagi RNK preparatiga 2 mkl glikogen (20 mg/ml), 12 mkl 3 M natriy atsetat, pH 7,5 qo'shildi va Vorteksda aralashtiriladi. Olingan eritmaga 132 mkl obiyomda izopropanol qo'shildi, yaxshilab aralashtirildi, -20 ° C da 30 daqiqa davomida inkubatsiya qilindi va 12000 g, 10 min 4 ° C da sentrifuga qilindi. Supernatant dekantatsiya yo'li bilan olib tashlandi. Cho'kma ketma-ket

75% va 96% etanol bilan 7500 g 4 ° C da 5 daqiqa davomida yuvildi va supernatant olib tashlandi. Ikkinchi yuvishdan keyin choʻkma havoda quritilgan va suvda eritiladi.

2.2.5. P-nishonlangan riboligonukleotidlarni tayyorlash va ular bilan ishlash.

Sintetik ribooligonukleotidga hsa-miR-199a va hsa-miR-155 ketma-ketligi boʻyicha radioaktiv fosfor izotopi almashtirilgan nusxa koʻchirish reaksiyasida T4 polinukleotid kinaz yordamida kiritildi. Buning uchun 0,2 o.e. ribooligonukleotid 5 ed. bilan inkubatsiya qilindi. T4 polinukleotid kinaza buferda 50 mM tris-HCl (pH 7,6 pri 25°S), 10 mM MgCl₂, 5 mM DTT, 0,1 mavjuddir. Reaksiya aralashmasini 37°C da 1 soat davomida inkubatsiya qilgandan soʻng 5 ed. qoʻshildi. T4 polinukleotid kinaz va reaksiya aralashmasini -20 ° C da 10-12 soat davomida inkubatsiya qilindi.

Radioaktiv nishonlangan riboligonukleotid 8 M karbamid bilan 16% poliakrilamid gelida (30:1 akrilamid: bisakrilamid) gel elektroforezi orqali tozalandi. Reaksiya mahsulotining geldagi holati avtoradiografiya yordamida aniqlandi. Radioaktiv nishonlangan ribo-oligonukleotidlar geldan DEAE tsellyulozasiga elektroelyusiya (200 V, 1 soat) orqali oʻtkazildi, suvda 20 mkl 3 M litiy perxloratning beshta ketma ketlikda elutsiya qilindi va 2% dan 10 baravar ortiq choʻkma asetonidagi litiy perxlorat eritmasi (5 min, 14000 g) bilan choʻktirildi. Olingan choʻkma ikki marta aseton bilan yuviladi va xona haroratida 1 soat davomida quritiladi. Belgilangan riboligonukleotid 30 mkl suvda eritildi. Konsentratsiya spektrofotometr yordamida aniqlandi.

Tadqiqotimizda 1:9 nisbatda radioaktiv nishonlangan va nishonlanmagan ribooligonukleotid aralashmasi ishlatilgan. Tayyorlangandan soʻng, aralash muz ustida saqlangan va 100 mkl namunaga 100 nmol miqdorida 2-merkaptotanol va denaturatsiya qiluvchi vositani qoʻshgandan soʻng, izolyasiyalash uchun namunalarga qoʻshildi.

Preparatlarning radioaktivligi Cherenkov usulida Tri-Carb 2800 TR zarracha hisoblagichida tegishli eritmaning teng hajmida suyultirilgan (yuvish buferi,

elyusiya buferi, suv) teng miqdordagi ribooligonukleotidni o'z ichiga olgan nazorat namunalariga nisbatan o'lchandi.

3.2.6. Teskari transkripsiya va miqdoriy real vaqtda PZR.

Real vaqt rejimida PZR nabori «MiScript SYBR® Green PCR Kit» (QIAGEN, Germaniya) yordamida amalga oshirildi. Ichki nazoratni aniqlash uchun universal teskari praymer, to'g'ridan-to'g'ri Ce_miR-39_1 miScript® Primer Assay va maxsus teskari praymerlar (mikroRNK-199a va mikroRNK-155) (QIAGEN, Germaniya) ishlatildi.

Teskari transkripsiya uchun primerlarning nukleotidlar ketma-ketligi. Har bir 20 mkl teskari transkripsiya reaksiyasida 7 mkl RNK preparati, har bir o'ziga xos OT praymerining 50 nM da, 1 ed. ribonukleaza inhibitori RiboLock mavjud. 100 ed.aktiv sichqon leykemiya virusi teskari transkriptazasi M-MLV-RT da, 4 mkl 5ob'yomda bufer (250 mM tris-HCl, pH 8,3 pri 25°C, 250 mM KCl, 20 mM MgCl₂, 50 mM DTT) va 0,25 mM har bir nukleotid uchun trifosfat olindi. Reaksiya termotsiklerda quyidagi sharoitlarda amalga oshirildi: 16°C - 30 min, 42°C - 30 min, 70°C - 10 min. Olingan kDNK preparatlari 4 ° S da 1 soatdan ko'p bo'lmagan vaqt davomida saqlandi.

Miqdoriy TaqMan real vaqtda PZR 2,5 mkl kDNK, 1,25 birlikni o'z ichiga olgan 30 mkl umumiy hajmda Taq DNK polimeraza, 3 mkl 10x PZR buferi (750 mM tris-HCl, pH 8.8 25°C, 200 mM (NH₄)₂SO₄, 0,1% (v/v) Tween 20), 4 mM MgCl₂, 0,25 mM har bir nukleotid trifosfat, 600 nM mikroRNKga xos to'g'ridan to'g'ri praymer, 800 nM universal teskari praymer va 300 nM maxsus TaqMan zondi ishtirokida amalga oshirildi.

3.2.7. Qon plazmasidagi mikroRNK profili ekspressiyasining aniqlash

MikroRNK preparatlari 600 mkl qon plazmasidan bir fazali protokol yordamida izopropanol bilan cho'ktirilib olindi, hosil bo'lgan cho'kmalar havoda quritilgan va -20 ° C da saqlanadi. Barcha namunalarda mikroRNKlar mavjudligini miqdoriy OT-PZR (profillash uchun miR-16 va miR-126; tekshirish uchun miR-23a va miRR-451a) yordamida tekshirildi.

Olingan namunalar tahlil qilish uchun quruq muz ustida laboratoriyaga yuborildi. Namunalardagi miRNKlarning ekspressiyasini miRCURY LNA miRNA qPCR yordamida (Exiqon, Vedbaek, Daniya) aniqlandi. Tahlil qilishdan oldin namuna cho'kmalari 60 mkl suvda eritildi. Olingan namunadan 7 mkl eritmasi, teskari transkripsiya reaksiyasida ($V=35$ mkl) shablon sifatida miRCURY LNA™ Universal RT microRNA PCR, Polyadenylation and cDNA synthesis kit yordamida (Exiqon, Vedbaek, Daniya) qo'llanildi. kDNK preparatlari suv bilan 50 marta suyultirildi va konsentratsiyasi miqdoriy PZR yordamida oldindan tayyorlangan primer to'plamlari (mikroRNK foydalanishga tayyor PZR, mikroRNK uchun sarum/plazma fokus paneli yoki boshqa mikroRNK uchun maxsus mo'ljallangan primer paneli) va ExiLent SYBR® Green master mix (Qiagen, SSHA) dan foydalanildi. Teskari transkripsiyaning salbiy nazorati sifatida, shablon RNK yo'qligida, miqdoriy real vaqt rejimida PZR LightCycler 480 sistemasida amalga oshirildi.

3.3. Statistik usullar

Olingan natijalarni statistik qayta ishlash variatsion statistikaning umumiy qabul qilingan usullaridan foydalangan holda amalga oshirildi. Ko'rsatkichlar orasidagi farqlarning chastotasini baholash uchun, o'rganilayotgan ko'rsatkichlarning o'zgaruvchanligi normal taqsimot qonuniga to'g'ri keladigan holatlarda t-kriteriy Studentdan foydalanildi va nol statistik gipotezaning muhimligining kritik darajasi (muhim farqlar yo'qligida) ko'rsatkich 0,05 ga teng deb qabul qilindi. MikroRNK ekspressiyasini miqdoriy baholash natijalarini talqin qilish quyidagi ko'rsatkichlar yordamida amalga oshirildi: ΔSt ko'rsatkichi indikator - o'rganilayotgan mikroRNKning Ct qiymatlari va ichki nazorat o'rtasidagi farqi; $\Delta\Delta Ct$ -ko'rsatkichi indikator sinov namunasi va nazorat namunasining ΔCt qiymatlari o'rtasidagi farqi. Nisbiy ifodani tahlil qilish uchun K.J.Livak [91a] tomonidan taklif qilingan $2^{-\Delta\Delta Ct}$ usulidan foydalanildi. Natijalarni statistik taxlil qilishda Mann-Uitni U-mezonidan foydalanish bilan amalga oshirildi.

IV. TADQIQOTLARNING XUSUSIY QISMI

Virusli etiologik kasalliklar guruhida etakchi o'rinni egallagan B va C viruslar keltirib chiqaruvchi hepatitlari, ayrim hollarda kasallikning surunkali kechishiga sabab bo'ladi. Zamonaviy bosqichda jamiyat rivojiga xavf qiluvchi virus hepatitlarining yuqori, surunkali kasallik ko'rsatkichlari, shuningdek, ularning onkologik hepatotsellyulyar karsinoma bilan aniq bog'liqligi unga misol bo'la oladi [108].

Virusli hepatit va ayniqsa, hepatit C genomlarining yuqori geterogenligi nafaqat gen mutatsiyalar va genlar ekspressiyasi profilini, balki yangi biologik markyorlarga asoslangan molekulyarni aniqlashda prinsipal muhim rol o'ynaydi. Bunday yangi biomarkyorlar mikroRNK (microRNA, miRNA, miR) hisoblanadi. MikroRNK lar 19 dan 24 tagacha bo'lgan nukleotidlar tutovchi kodlanmagan RNK sinfidir. Bu mikroRNK lar turli mexanizmlar ishtirokida genlarning ekspressiyasini boshqarishda qatnashadi, lekin shu kungacha oxirigacha, mikroRNK lar to'liq o'rganilmagan [115].

Ko'plab tadqiqotlar natijalari odamlarda gepatobiliar tizimning shikastlanishida gepatovirus infeksiyalarining sezilarli darajada ishtirok etishini ko'rsatadi. So'nggi yillarda kasalliklarni shakllantirishda kichik kodlanmagan RNK molekulalarining (mikroRNK) ishtiroki va diagnostik qiymatini aniqlash bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda [43]. MikroRNKlar transkripsiyadan keyingi darajadagi gen ekspressiyasini tartibga soluvchi molekulalar xisoblanadi [115].

MikroRNKlar hujayra faolligining har bir jihatini, jumladan, hujayralarning differentsiatsiyasi, rivojlanishi, metabolizmi, ko'payishi va apoptozini, shu jumladan virusli infeksiyalar jarayonida ishtirok etishni potentsial tartibga solishi isbotlangan [43,44]. Aylanib yuurovchi mikroRNKlar barqaror va tana suyuqliklarida parchalanishdan himoyalangan bo'lib, ularni ko'plab kasalliklarda universal biomarkerga aylantiradi. [92]. Hozirgacha barcha genlarning 60% dan ortig'ini ifodalashni tartibga soluvchi 2500 ga yaqin mikroRNKlar topilgan.

4.1. Umumiy klinik tadqiqotlar va olingan natijalar tahlili

Ushbu ish 2018-2022 yillarda davolangan jigarning surunkali kasalliklari bo'lgan 76 nafar bemorni O'zbekiston Respublikasidagi virusologiya ilmiy-tadqiqot instituti referens laboratoriyasida (2018-2022) o'tkazilgan tekshiruv ma'lumotlariga asoslanadi.

Bemorlar olib borilayotgan tadqiqotga qarab quyidagi guruhlariga bo'lingan; birinchi guruhga 36 ta SVGB bemorlari, ikkinchi guruhga SVGC bilan kasallangan 40 bemorlar kiritilgan. Nazorat guruhi VGB va VGC infeksiyasi belgilari (markyori) bo'lmagan 30 sog'lom odamlardan iborat bo'lgan.

SVGB bilan tekshirilganlar orasida erkaklar 41,7 foizni (15), ayollar 58,3 foizni (21) tashkil etdi (1 – rasm). SVGC bilan og'rikan bemorlarda ayollar ham ustunlik qilishgan (62,5% erkaklarga nisbatan 37,5%).




Diagramma 1. Bemorlarning jinsi bo'yicha taqsimlanishi

Surunkali jigar kasalligi bilan og'rikan bemorlarni o'rganishda yosh jihatida 2-rasmda keltirilgan. Taqdim etilgan diagrammadan ko'rinib turibdiki, (rasm.2) turli yoshdagi SVGB bilan og'rikan bemorlarda SVGC bilan solishtirganda ba'zi farqlar mavjud ekan. Eng kam kasallanish SVGB da 18-29 yoshda (5,6%) uchragan

bo'lsa, SVGC bilan og'rgan bemorlarda esa bu ko'rsatkich 20% ni tashkil etgan. Eng yuqori kasallanish SVGB da 40-49 yoshdagi bemorlarda 41,7% (36) qayd qilingan.




Diagramma 2. Bemorlarning yoshiga qarab taqsimlanishi

SVGC bilan og'rgan bemorlarda esa 30-39 yoshdagi odamlarda yuqori kasallanish (37,5%) ro'yhatga olindi. 50-59 yoshdagi SVGB bilan og'rgan bemorlar soni -8 (22,2%), 60 va undan katta yoshdagi bemorlar soni -2 (5,6%) ni tashkil etdi. 50-59 yoshdagi SVGC bilan og'rgan bemorlarda bu ko'rsatkichlar 7,5% ni va 60 va undan katta yoshdagi bemorlarda bemorlarda esa 2,5% ni tashkil etdi (3.2 - rasm).

Shunday qilib, surunkali virusli jigar kasalliklari bilan og'rgan bemorlarni jinsi va yoshi jihatidan o'rganishda quyidagi xususiyatlar aniqlandi:

SVGB va SVGC bilan kasallangan barcha tekshirilgan guruh bemorlarda kasallanish erkaklarga (39,5) qaraganda ayollar (60,5%) orasida ko'proq qayd etildi. 18-29 yoshdagi bemorlar orasida SVGB hepatitining o'ziga xos ko'rsatkichining keskin pasayishi Respublikada VGB ni epidemik holatining yaxshilanishi va HBs-vaksinasi bilan ommaviy emlashning joriy etilishi, emlash dasturiga (1997) kirgan kontingentning yosh doirasi bilan izohlanishi mumkin.

4.2. Surunkali virusli (B, C) hepatitlarda biokimyoviy tadqiqotlar natijasi.

SVGB va SVGC bilan tekshirilgan bemorlarning metabolik jarayonlarining funksional holati quyidagi biokimyoviy ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi: qondagi umumiy protein, albumin, globulinlar, umumiy xolesterin, umumiy bilirubin, aminotransferazalarning faolligi (AlAT va AsAT) va ishqoriy fosfataza va timol testi.

Biokimyoviy ko'rsatkichlarni SVGB va SVGC bemorlarda o'rganganimizda ikkala guruhda ham bemorlarning ko'pchiligida dastlab AlAT, AsAT va timol testining faolligi ko'rsatkichi yuqori ekanligi (1-jadval), va jigar ichi xolestaz sindromining namoyon bo'lishi (giperbilirubinemiya, ishqoriy fosfataza (IF)) faolligini oshganligi kuzatildi.

6-jadval.

Surunkali virusli gepatit B va C bilan og'rigan bemorlarda biokimyoviy ko'rsatkichlar

Ko'rsatkichlar	Nazorat guruhi	SVGB	SVGC
AlAT mmol/l	0,71 ± 0,48	3,3 ± 0,78*	3,59± 0,68*
AsAT mmol/l	0,64 ± 0,056	2,13 ± 0,63*	3,14± 0,84*
Bilirubin mmol/l	14,56 ± 0,59	22,46 ± 0,4**	25,5± 0,65**
Xolesterin mmol/l	5,4 ± 0,15	4,0 ± 0,14**	3,98 ± 0,13**
Ishqoriy fosfotaza ed.	23,18 ± 2,45	252,21 ± 2,44**	235,4± 2,44**
Umumiy oqsil g/l	72,4 ± 0,29	75,64 ± 0,58**	68,6± 1,58
Albumin%	61,08 ± 0,42	61,97 ± 0,084*	56,55± 0,091**
α-globulinlar %	8,26 ± 0,24	12,32 ± 0,45**	12,58± 0,38**
β-globulinlar %	9,95 ± 0,74	11,15 ± 0,35*	12,15± 0,43*

γ -globulinlar%	$13,75 \pm 0,54$	$14,58 \pm 0,53^*$	$15,25 \pm 0,63^*$
Timol probasi ed	$2,43 \pm 0,25$	$5,23 \pm 0,51^{**}$	$5,38 \pm 0,61^{**}$

Eslatma. Nazorat bilan farqlar uchun ahamiyatlilik darajalari: * - $R < 0,05$; *** - $R < 0,001$.

Biz sitolitik sindromning mavjudligini aminotransferaza (AlAT) va aspartat aminotransferaza (AsAT) darajasidagi o'zgarishlar bilan baholadik. SVGB bilan og'riqan bemorlarda bu ko'rsatkich 69,4% hollarda kuzatildi. AlAT darajasining normal qiymatlarga nisbatan 1,5-2 baravar oshishi 23 (63,8%) bemorda aniqlandi, 2 bemorlarda esa (5,6%) bu ko'rsatkich 3-5 marta oshganligi ma'lum bo'ldi.

Surunkali gepatit C bilan og'riqan bemorlarda esa, bu ko'rsatkichlar 82,5% hollatlarda kuzatildi. SVGC og'riqan bemorlarda AlAT darajasining normal qiymatlarga nisbatan 1,5-2 baravar oshishi 24 (60%) bemorda, 9 (22,5%) bemorda esa bu ko'rsatkich 3-5 marta oshganligi aniqlandi. Har ikkala guruhdagi bemorlarda (mos ravishda 83,3%, 85%) xolestaz ko'rsatkichi bo'lgan ishqoriy fosfatazaning ko'payishi kuzatildi.

Har ikkala guruh bemorlarning 52,7% va 57,5% (mos ravishda) bizning kuzatishlarimizda qon zardobida α , β -globulinlar va timol testining ko'payishi bilan tavsiflangan mezenximal-yallig'lanish sindromi kuzatildi. SHu bilan birga, timol testining o'sishi darajasi SVGB bilan og'riqan bemorlarda 58,3% va 70% SVGC da qayd etildi.

Surunkali gepatit B va surunkali gepatit C bilan og'riqan bemorlarda umumiy oqsil va oqsil fraksiyalari tarkibini ko'rib chiqqanimizda quyidagi natijalarni oldik: giperproteinemiya bemorlarning 38,8% va 27,5% (mos ravishda)da kuzatildi, gipoalbuminemiya esa (mos ravishda) 55,5% va 67,5% bemorlarda aniqlanganligi qayd etildi, bu ko'rsatkichlar jigar hujayralarining shikastlanishining kuchayishini aks ettiradi. Bemorlarda γ -globulinlarning ko'payishi 19,4% va 32,5% (mos ravishda)da, bu kasallikni retsidivi ro'y

berganligini aks etiradi. Bu ko'rsatkichlar nazorat guruhiga nisbatan mos ravishda ishonchli ($r < 0,05$) oshgan.

Jigarning pigment funksiyasining aks etishi qon zardobida bilirubin va unikanish mahsulotlarining tarkibiga bog'liqdir. Jilber sindromi bolalarning 14,3 foizida kuzatiladi. Tekshiruv o'tkazilgan bemorlarning 16,7% va 22,5% da (mos ravishda) umumiy bilirubin darajasining 21 mkmol/l dan oshganligi qayd etildi. Bu ko'rsatkichlar nazorat guruhiga nisbatan mos ravishda ishonchli ($r < 0,001$) oshgan.

4.3. Surunkali virusli gepatit (B, C) uchun virus yuklanishi

Surunkali virusli gepatit B va C da, gepatit B (HBV) va C (HCV)ning qo'zg'atuvchisini aniqlash bo'yicha tadqiqot o'tkazildi, bunda virusning genetik materiali (DNK yoki RNK) mavjudligi va uning miqdori qon namunasida (virus yuklamasi) real vaqtda PZR yordamida aniqlandi.

Polimeraza zanjiri reaksiyasi juda sezgir va o'ziga xos usul xisoblanadi. PZR usulida virusning DNK B (HBV) yoki RNK C (HCV) ni sifat yoki miqdoriy jihatdan aniqlashi mumkin. Virus yuklanishini miqdoriy aniqlash kasallikning intensivligini, terapiya samaradorligini yoki antiviral preparatlarga qarshilik rivojlanishini baholashga imkon beradi.

Qonda virusning konsentratsiyasi va o'tkir virusli gepatit B va C ning kechish natijasi o'rtasida bog'liqlik mavjud. Viremiyaning past darajasi bilan infeksiyaning surunkali holatga o'tish ehtimoli nolga yaqinlashadi va virus bilan kasallangan odam boshqalar uchun xavfli emas. Yuqori virus yuklamasida esa ($< 10^5$ nusxa / ml) bemorlarda surunkali holat tez-tez uchraydi va bemor infeksiyaning potentsial manbai hisoblanadi.

Antivirus terapiyaning samaradorligi qondagi virusli DNK yoki virusli RNK miqdorini kamaytirish orqali baholanadi. Davolash boshlanganidan 3-6 oy o'tgach, o'tkazilgan terapevtik javobga ega bo'lgan virusli yuklanish 1-2 darajaga kamayishi kerak. Davolash paytida virus miqdori kamaymasligi yoki uning ko'payishi terapiyani qayta ko'rib chiqish va o'zgartirishni talab qiladi.

Gepatit B yoki C virusining DNK yoki RNK miqdorini aniqlash kasallikning klinik ko‘rinishi va biokimyoviy ko‘rsatkichlari, infeksiya belgilari, shuningdek, jigarining punktsion biopsiyasi natijasi bilan birgalikda kasallikni kechishini bashorat qilish imkonini beradi. va antiviral terapiya zarurligini ko‘rsatadi.

